

*Yangi yil = orzu-umidlar
va ulkan niyatlar bayrami!*

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 29-dekabr, №52 (3062)



BIZ
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

www.mv-vatanparvar.uz

*Yangi yil muborak,
yurtim mardlari*



Oqlikka o'rالgan yurtim charog'on,
Yangi yil kutmoqda el-elatlari.
Uning hur baxtini asrovchi qo'rg'on,
Siz borsiz, Vatanning azamatlari,
Yangi yil muborak, yurtim mardlari!

Siz borsiz – tinchlik bor, bayram asli shu,
Hur baxtin ardoqlar elning norlari.
Bu yurtni bayramlar e'zozlar mangu
Zero Vatan deydi alp sardorlari,
Yangi yil muborak, yurtim mardlari!

Zulfiya YUNUSOVA



SARHISOB PALLASIDAGI YO'QLOVLAR

Yaqinlashib kelayotgan Yangi yilni har kim ayricha bir sarhisob, o'ziga xos orzu-intilishlar bilan qarshilash arafasida.

Bu yil ham mamlakatimizda muvaffaqiyatlar ko'p bo'ldi. Ko'plab xonadon ahllari kutilmagan yutuqlar, mukofotlar bilan taqdirlandi. Ana shunday sarhisob pallasida urush faxriyalar xonadonlari sohib va sohibalari ham Yangi yil oldi yo'qovlaridan behad shod bo'lismi.



Mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov, Qurolli Kuchlar faxriyalar hamda mahalla faollari poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida istiqomat qiluvchi Xayeva Ribakova hamda Zeytuna Muratova xonadonlarida Yangi yil bayrami munosabati bilan Prezidentimizning yo'llagan tabrikilarini o'qib eshittirib, ajratilgan moddiy yordam pullari va qimmatbaho sovg'alarni topshirishdi.

90 yoshni qoralab, mahalladoshlari, yaqinlari ardog'ida yashab kelayotgan onaxonlar ko'rsatilayotgan bu qadar yuksak e'tibordan mammun ekanliklarini bildirishdi. Ta'kidlash kerakki, ibratli hayat sohibalari yurtimizda hayotning tobora yaxshilanishi uchun amalga oshirilayotgan ishlarni atrofdagilarga, ayniqsa yoshlarga to'g'ri tushuntirib, oilani, Vatanni ardoqlash, tinchlikni asrab-avaylash, pok va halol mehnat qilish, doimo ilm va bilimga intilish inson baxtining eng asosiy omillari ekanligini qayta-qayta uqtirib keladi.

Kapitan Aziz NORQULOV,
"Vatanparvar"



Azal-azaldan xalqimiz yoshi ulug' nuroniylarni e'zozlab ularga katta ehtirom va hurmat ko'rsatib kelgan. Ayniqsa, tabarruk insonlarning holidan xabar olish, ularning og'irini yengil qilish va nasihatlari-yu duolariga qulqutish xalqimizga xos fazilatdir.

Nuroniylarg'a bayram sovg'alari



Yangi yil bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti boshlig'i general-leytenant Shavkat Normatov boshchiligidagi harbiylar Mirzo Ulug'bek tumanida istiqomat qilayotgan Ikkinchiji jahon urushi faxriyalar – Valeriya Sopriko va Zinaida Bolochenkova xonadoniga tashrif buyurdi.

Yangi yil bayrami oldidan mehnat faxriyalar va urush qatnashchilarining holidan xabar olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi yil tabrigi o'qib eshittirildi. Ayyom munosabati bilan yo'llangan tabrikda davlatimiz rahbarining "Hech bir inson jamiyatimiz va davlatimizning mehri va e'tiboridan chetda qolmaydi" degan so'zlari bugun hayotda o'z isbotini topganligi ta'kidlandi. So'ngra bir martalik pul mukofoti, qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Samimi muloqot davomida nuroniylar mamlakatimizda hukum surayotgan tinchlik va xotirjamlikni ta'minlash yo'lida mehnat qilayotganlarning zahmatlari munosib qadrlanayotgani haqida fikr bildirishdi.

Urush va mehnat faxriyalar o'tmishning mashaqqatlarini eslab, bugungi farovon kunlarga shukronalik keltirishdi. Hozirda mamlakatimiz mudofaa salohiyatin oshirishdagi yutuqlarni e'tirof etib, yosh harbiylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'z ko'maklarini ayamasliklarini ta'kidlashdi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

Yangi yil bayrami munosabati bilan mudofaa vazirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinnbosari polkovnik Qodir Tursunov boshchiligidagi harbiy xizmatchilar poytaxtimizning

Munavvarqori mahallasi Buyuk ipak yo'li ko'chasida istiqomat qiluvchi Ikkinchiji jahon urushidan jabrlangan Nikolay Antonovich Pechenkin xonadonida bo'ldi.



YANGI YIL TUHFASI

Urush va undan so'ng ko'plab medal va ordenlar bilan mukofotlangan otaxon samimi suhbat davomida suronli yillarni esga olib, yurtimizdag'i tinchlik va osoyishtalik naqadar muhim ekanini shukronalik bilan tilga oldi. Muborak 97 yoshni qarshilagan otaxon keksalarga ko'rsatib kelinayotgan g'amxo'rlik uchun davlatimizga Mudofaa vazirligiga o'z minnatdorligini bildirdi.

Shu kuni harbiy xizmatchilar Mirzo Ulug'bek tumanida istiqomat qiluvchi Ikkinchiji jahon urushi qatnashchisi Vladimir Andreyevich Chmixun xonadonida ham bo'ldi. G'alabadan so'ng Toshkent shahriga yuborilgan va qolgan umrini shu yerda davom ettirayotgan otaxon bugungi tinch va osoyishta hayotning qadri niyoyatda yuqori ekanini, bugungi kunda nuroniyalar va mehnat faxriyalariga yaratilgan sharoitlar, e'tibor va g'amxo'rliklardan g'oyat minnatdor ekanini ko'zda yosh bilan alohida ta'kidladi.

Faxriylarga davlatimiz rahbarining tabrigi o'qib berilib, farmon bilan belgilangan pul miqdori va esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Ikkinchiji jahon urushi nafaqat insoniyatning moddiy olamiga, balki uning qalbi, dunyosi tomon qilingan yurish edi. Yillar o'tib, jang-jadallar, snaryadlar qoldirgan vayronalar obod bo'ldi. Ammo u kungi ko'ngillar hamon vayron, u kungi yo'qotishlar mudom og'riqli.

Qahramon umrlar sira o'Imagay...



Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining bir guruhi harbiy xizmatchilar poytaxtimizning Yashnobod tumanida istiqomat qilayotgan Ikkinchiji jahon urushi faxriysi, 98 yoshni qarshilagan Pavel Materikov xonadonida bo'lishdi.

Yurt posbonlari faxriy otaxonni bayram bilan muborakbod etishar ekan, uning bosib o'tgan shonli hayat yo'li barchaga birdek o'rnak bo'layotganini alohida e'tirof etishdi. Hozirda ikki qizning mehribon otasi, ko'plab nabiralarning suyukli bobosi bo'lgan Pavel Materikova bayram munosabati bilan yo'llangan Prezident tabrigi o'qib eshittirilib, pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Buni qarangki, yurtimizning ko'plab go'shalarida urushning og'riqli izzatobolarini boshdan kechirib, bugungi kunda e'zoz va farog'atda yashayotgan yurdoshlarimiz borki, ularni sira unutib bo'lmaydi. Alla Funtikova qiyofasida ularning hayat yo'liga nazar solish mumkin.

1945-yili Germaniyaning Ashaffenburg shahridagi konslagerda qizaloq dunyoga keladi. Onasi unga Alla deb ism qo'yadi. Urush tugab, oradan yillar o'tdi. Alla Funtikova hozirda 78 bahorni qarshilagan. Onaxon Toshkentning Yashnobod tumani "Navro'zobod" MFYda istiqomat qiladi. Harbiy xizmatchilar Alla Funtikova xonadonida bo'lib, samimi suhbat qurishdi. Shundan so'ng onaxonga Yurboshimizning bayram tabrigi o'qib eshittirilib, sovg'alar topshirildi.

Yurt o'g'lonlarining navbatdagi manzili 85 yoshli faxriy onaxon Nina Martinovaning xonadoni bo'ldi. Nina Martinova inson qadri ulug'lanayotgan Yangi O'zbekistonda ko'rsatilayotgan hurmat va izzatdan juda mamnun. Qahramonimizga ham Prezidentimizning bayram tabrigi o'qib berildi, pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alar taqdim qilindi.

B. ELMURODOV,
"Vatanparvar"

TARIXNI TIKLAYOTGAN KUN

Sohibqiron bobomiz: "Mening bir bog'im borki, uzunligi o'ttiz yig'och" deganlarida haq edi. Samarqanddan tortib Buxorogacha obod bo'lmagan, bog'-rog' barpo etilmagan manzil yo'q edi. Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Samarqandda Amir Temurning 14 ta bog'i qayta tiklanishi haqida so'z borarkan, beixtiyor o'sha yashil maskanlar ko'z oldimda gavdalandi. Zero, bu jahd o'sha o'ttiz yig'och bog'ning debochasidir.

Xorijlik shovinistlarning O'zbekistonni bosib olish kerakligi to'g'risidagi iddasiga jiddiy munosabat bilan boshlangan majlis davomida "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"ligi va "Jadid" gazetasining tashkil etilishi yosh avlodni har qanday yot g'oyalarga va chaqiriglarga ergashib ketavermaslik, kindik qoni to'kilgan tupoq hamda Vatan taqdirliga befarq qaramaslikka undovchi tashabbuslardan biri bo'ldi.

Madaniyat, san'at, adabiyot masalalariga batapsil to'xtalgan bu yig'ilishda ona tilimizning nufuzini oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Chunonchi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarish ish haqiga 50 foizgacha ustama qo'shib berilishi, boshqa tilda ta'lil beriladigan maktablarda o'zbek tili darsi 2-3 barobar oshirilishi, o'zbek tili bo'yicha xalqaro fan olimpiyadasi o'tkazilishi hamda g'oliblarni o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinishi shular jumlasidandir.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov "Ona tilim, sen bo'imasang gar, men ham to'ti bo'lib qolaman" deganida qanday

iztirob va o'kinchni his etgan ekan? Chunki ular o'z tilining tahqirlanganiga guvoh bo'lgan, o'z yurtida o'z ona tilida gapirolmay, tishini tishiga bosishga majbur bo'lganini yaxshi bilamiz. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi, deganlaridek o'sha davrning qoni qaynoq, nigohi o'tli ijodkorlari o'z g'oyalarini ijod mahsullariga singdirib kelishgan.

Bugun ona tilimizning rivoji uchun qo'yilayotgan ushbu dadil qadamlar ham xalqimizning orzu-umidlariga mushtarakdir. Farzandlarimiz o'z tillarida gapirganda g'urur tuyishi, til imkoniyatlaridan faxrlanishi, eng muhimmi, buning zamirida ajodolari asrlar davomida to'plagan ulgidan mosovo bo'lib qolmasligi uchun tamal toshi qo'yildi.

Adabiyot vakillariga katta imkoniyatlar eshigini ochgan kengashda mohir tarjimonlar uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilishi hamda nashriyot va matbaa korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod etilib, boshqa imtiyozlar ham berilishi har qanday qalam ahlini ruhlantirishi tabiiy.

Kutubxonalar ishini rivojlantirish, kelgusi yildan milliy va jahon adabiyotining sara namunalarini ko'p ming nusxalarda chop etish hamda mamlakatimizdagagi barcha kutubxonalarga yetkazib berish lozimligi ta'kidlandi. Xalqaro maydonda o'zbek adabiyotining nufuzini oshirish uchun ko'zda utilayotgan rejalarining barchasi kelgusida o'qimishli, ziyoli, kitobxon avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan.

Biznes hudud shaklida "Kino parki" ochilayotgani esa ko'pchilikni quvontirib yubordi. Bilamizki, dunyo kino san'atining "Hollivud", "Bollivud" kabi kino shaharchalarida tasvirga olinishi film muvaffaqiyatini yanada oshiradi. Endi O'zbekistonda ham kino shaharchalarida

dunyoga ko'z-ko'z qilsa arziyidigan ajodolarimiz va zamon qahramonlari haqida tomoshabinni ruhlantiruvchi film va ko'p seriali kinolar ekran yuzini ko'rishi mumkinligi e'tirof etgulik tashabbuslardan biri bo'ldi.

Davlat buning uchun xususiy kino kompaniyalarga yer ajratib berishi san'atimizga bo'lgan yuksak e'tiborning bir namunasidir. Bu e'tiborning zamirida, albatta, katta mehnat va mashaqqat borligi hech birimizga sir emas. Biroq biz faqat qorin g'ami bilan yashayotgan yoki yuzaki, oldi-qochdi tasvirlar bilan qoniqadigan o'g'il-qiz ulg'aytirmoqchi emasiz. Biz kelajak avlod oldida o'zimizni burchli his qilib, ne ishga qo'l ursak, xayrlisini va ibratlisini qilishga intiladigan, adolati yetti iqlimga ma'lum va mashhur sohibqironlar davomchisizim.

Kengaytirilgan yig'inda ishtirot etgan borki, ushbu tadbirdan nima oldim deb o'ziga savol berishi turgan gap. Men bu savolga quyidagicha javob beraman. Bizning karvonimiz o'z yo'lidan og'ishmay, o'tmishi, qadriyatlarini unutmay, buguni va kelajagi haqida qayg'urib bormoqda. Bu karvonga hurayotganlarga ham o'z javobi bor, bo'ladi ham! Buning isbotini yig'in davomida yurtboshimizning "Mening eng kichik davomchim ham mustaqil O'zbekistonda yashashini istayman!" deya ta'kidlashidan osongina anglab olish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsad va takliflar atrofida birlashib, Vatan ravnaqi uchun ilgari surilayotgan mafkura yo'lida o'z hissamizni qo'shishimiz – ham fugarolik, ham vijdon oldidagi burchimiz ekanini unutmasak bas.

**Begali ESHONQULOV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi**



RAG'BATGA YARASHA MAS'ULIYAT

Madaniyat va ma'naviyat millat o'ziga xosligining muhim belgilardir. Har bir xalqning o'z adabiyoti, san'ati bor va unda o'zining milliy xususiyatlari, milliy identifikatsiyasi mujassam bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning madaniyat va ma'naviyat ahli bilan uchrashuvida ta'kidlangan ko'plab masalalar ijodkorlarga ham rag'bat, ham mas'uliyat ekanini anglash mumkin.

Ijodkorning o'zini yuzaga chiqarishi, iste'dodini namoyon etishi uchun ma'lum ma'noda sharoit va imkoniyat bo'lishi zarur. Hali-hanuz ko'plab ziyoililar tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ko'plab iste'dodlar o'tish davrining qurbanisi, ya'ni "yo'qotilgan avlod" bo'lgani kuyinib eslanadi. Iste'dodlar uchun ijod qilish emas, faqat pul topish, oila boqish, xalqona aytganda, "turmush aravasini tortish" asosiy maqsad bo'lib qoldi. Natijada yozilishi kerak bo'lgan yetuk asarlar yozilmadi. Endilikda badiiy ijod bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoit yuzaga kelgan.

Ma'ruzada har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berilib, mualif va tarjimonlarga munosib qalam haqiqi to'lanishi ta'kidlandi. Bu, albatta, yaxshi. Ammo asarning badiiy saviyasi yuksak bo'lishi ijodkorning o'ziga

bog'liq. U o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, har qanday asarni taqdim etishdan hayo qilishi ijodkorning vijdonini ko'rsatadi. Asosiy maqsad yuqori gonoror olish uchun yozilgan ijod mahsuli na millatga, na adabiyotga manfaatlil bo'ladi. "Har bir ishdan foyma kunganingda, uni bajarishda qiyinchiliklar va ikkilanishlar paydo bo'lsa, mashaqqati ozroq tomoniga kuch ber, qiyinchilikidan ezilmaslik chorasini ko'r... Nodon o'gitida xato bo'lishi muqarrardir; dushman nasihatida allov bo'lishi shubhasizdir. Unisidan aldanma va bunisiga o'zingni aldatma", deb yozadi hazrat Alisher Navoiy. Shunday ekan, jamiyatda ijodkor vijdoni shakllanishi lozim.

O'zbekiston nomini dunyoga tanitish uchun nafaqat sport orqali, balki adabiyot va kino orqali ham erishish mumkinligini ijodkorlar qalban his etmog'i, maqsadni shu nuqtaga yo'naltirmog'i har tomonlama

to'g'ri bo'ladi. Zero bugun dunyoning millionlab kitobxonlari tomonidan o'qiladigan, har bir kitobi butun dunyodagi muxlislari tomonidan kutiladigan Xaruki Murakami nomi Yaponiyani, Paulo Koelo nomi Braziliyanı yanada dunyoga mashhur qilayotgani sir emas. Masalan, Koelonning birgina "Alkimyogar" asari 81 tilga tarjima qilingan. Ammo Koelonning ijodi faqat shu asar bilan chegaralanib qolmagan. Yozuvchining kitoblari 350 millionga yaqin nusxada sotilgan. Koelonning kitoblari sotilgan pul miqdori horror janrining qiroli bo'lmish Stiven Kingniki bilan bir xil. 2017-yilda Koelo dunyoning eng nufuzli yozuvchilar ro'yxatida 2-o'ringa sazovor bo'ldi. U birinchi o'rinni "Garri Potter" mualifi Joan Roulingga boy bergen, xolos.

Yoki kino sohasida Janubiy Koreya kino sanoati butun dunyoni zabit etmoqda. "Kalmor o'yini" seriali dunyoga mashhur bo'ldi. Aslida bu o'yin koreys milliy o'yini bo'lib, endilikda ushbu serial ortidan koreys madaniyatining bir bo'lagi dunyoga targ'ib qilindi. Yoki turk kinojodkorlari tomonidan yaratilayotgan seriallari dunyo bo'yicha eng yuqori reytinglarda turadigan Lotin Amerikasi seriallarining nufuzini biroz pasaytirib qo'ydi. Turkiya esa allaqachon o'z seriallarining eksport hajimi bo'yicha dunyoda AQShdan keyingi ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Turkiya seriallaridan keladigan daromad bugungi kunda yiliga 7 mlrd. yevroni tashkil etmoqda. Zamonaviy Turkiya o'z kinematografiyasini xalqaro maydonga ta'sir o'tkazishning kuchli vositasi deb biladi. Turk tilining xalqaro miqyosda kattaroq nufuzga ega bo'lish istagi ham buning asosiy sabablaridan biridir. Demak, adabiyot va kino san'atiga investitsiya kiritish orqali millat nomini, madaniyatni va san'ati dunyoga mashhur qilish, shu bilan birga ijodkor yoshlarda ulkan motivatsiya hosil qilish mumkin.

Ijtimoiy buyurtmalar nomi buyurtma bo'lgani bilan kreativlik, zamonaviylik

va badiiy saviya uning asosiy mezoni bo'lmog'i lozim, deb o'layman. Bugun zamonaviy adabiyotning urf bo'lgan yo'nalishlari: konseptualizm, postmodernizm, fusunkor realizm, fentezi, kiberpunk, intellektual adabiyot, shuningdek grafik romanlar bo'lmish komiksler, elektron epistolyar janr, latifalar, sketchlar, lingistik tajribalar va boshqalarda ifodalangan zamonaviy folklor ham moda adabiyotiga aloqador janrlarda asarlar yozish orqali milliy adabiyotimizda yangi davri boshlash mumkin. Bugungi adabiyot hayotning zamonaviy ritmiga, o'quvchining yangi voqelikni idrok etishiga qarab moslashadi va yangilanadi. Zamonaviy adabiyot rang-baranglik talab etadi. Zamonaviy xorij adabiyotining eng rivojlangan yana bir yo'nalishi bu ilmiy-fantastik yo'nalishdir. Bu yo'nalish kompyuter o'yinlari sanoati bilan yaqin, samarali hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Zamonaivi fantastika adabiyotining ko'plab yangi janrlari paydo bo'ldi, ular orasida kiberpunk, stimpunk, horror, kosmik opera, shahar fentezi, postapokalipsis, gotik roman va texnofentezi kabi janrlarni sanash mumkin. Bular barcha ijodkorlar uchun sinab ko'rlishi, tajriba qilinishi foydali bo'lgan ochilmagan qo'rqliardir.

Ma'ruzada Prezident Shavkat Mirziyoyev ulug' ma'rifatparvar Ibrat domlaning "Millatni kim isloh etar? Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarini bejiz eslamadi. Millat ziyoililar, yozuvchi va shoirlari, kino va teatr sohasi vakillari mazkur imkoniyatdan unumli foydalaniishi, millat ma'naviyatiga o'zining munosib ulushini qo'shishi ularning ma'naviy burchidir.

**Xurshid SEROBOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmisi xodimi**

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi harbiy xizmatchilarning intellektual darajasini, jangovar va vatanparvarlik ruhini hamda jamiyatda harbiy xizmat nufuzini oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

JAMOATCHILIK KENGASHIDA YIL SARHISOBİ



Qurolli Kuchlar akademiyasining Situations markazida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2023-yil yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish masalasiga bag'ishlangan umumiyyat videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda Mudofaa vazirligi,

mutaxassislar tomonidan kun tartibidagi besh muhim masala, ya'ni Jamoatchilik kengashining joriy yil yakuni yuzasidan sarhisobi, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-

kengashining samarali faoliyatini yanada oshirish, xalq va armiya o'rtasidagi ahillik va ishonch tuyg'ularini mustahkamlash, mamlakatimiz mudofaa va xavfsizlik masalalarida olib borilayotgan davlat siyosatini keng ommaga chuqurroq singdirish kabi muhim vazifalarni o'zida mujassam etgani yig'ilish



Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo'linmalari a'zolari, ishchi organi rahbarlari va yetakchi mutaxassislari, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bo'yicha o'rinosarlari ishtirot etishdi.

Mudofaa vazirining o'rinosarlari general-major Hamdam Qarshihev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo va boshqa mas'ul

tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi ijrosi, joriy yilning 11-oktabr kuni Prezident raisligida o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalar, shuningdek Respublika ma'nnaviyat va ma'rifat kengashining navbatdagi yig'ilishida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi hamda Jamoatchilik kengashining 2024-yilgi faoliyat rejasini tasdiqlash kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Ushbu tashabbus va chora-tadbirlar zamirida avvalo Jamoatchilik

qatnashchilar tomonidan e'tirof etildi. Muzokaralar davomida

Jamoatchilik kengashi komissiyalari raislari hamda hududiy bo'linma raislarining hisobotlari, kengash a'zolarining fikr-mulohazalari tinglandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar, taklif va tavsiyalar o'rganilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Kapitan Bobur ELMURODOV



YOSH HARBİYLAR FORUMI

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, jumladan demokratik islohotlarni yanada chugurlashtirish jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokinini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, sog'lom e'tiqodli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.



Aniq chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, yoshlarda ona yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha ta'lim muassasalarini, mehnat jamoalarini va mahallalarda yoshlar va "og'ir" toifadagi yoshlar hamda milliy armiyamiz saflaridagi yosh avlod vakillari bilan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlar izchillik bilan olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarda "Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari" mavzusida tashkil etilgan "Yosh harbiylar forumi" ayni shu masalalarga qaratildi. Unda videoselektor tarzida harbiy qismi va muassasalar vakillari ham ishtirot etdi.

Forumda yosh harbiy xizmatchilarining harbiy sohaga oid innovatsion g'oyalari va ishlanmalari ko'r gazmasi, yosh harbiy adib va shoirlarning

kitoblari taqdimoti, "Yoshlar kutubxonasi" hamda "Mard askarga sovg'a" rukni ostida nashr etilgan badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Tadbirda mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov, O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Temurbek Poyonov, Mudofaa vazirligi harbiy qismi va muassasalaridagi O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchilari hamda xalqaro sport musobaqalari g'oliblari, yosh harbiy xizmatchilar, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari, Jahan iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari ishtirot etdi.

Forum O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlandi. Mudofaa vazirining yosh harbiylarga yo'llagan murojaatini general-major Shuxrat Xalmuxamedov o'qib eshittirdi.

Forum davomida Mudofaa vazirligi harbiy qismi va muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlar tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar

hisoboti tinglanib, qo'shinlarda joriy yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan tayyorlangan videorolik namoyish etildi. Shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Temurbek Poyonov hamda o'z mutaxassisligi bo'yicha yuqori cho'qqilarga erishgan yosh harbiy xizmatchilar ham so'zga chiqdilar.

Forumda Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedovning yosh harbiylar bilan jonli savol-javob tarzidagi muloqoti ham bo'lib o'tdi.

Tadbir yakunida buyuk ajodolarimiz Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, To'maris hamda jadidchilik harakati namoyandalarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy chiqishlar hamda iste'dodli yosh harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi.

**Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"**

YO'RIQCHI-SERJANTLAR TAJRIBA ALMASHDI

Qurolli Kuchlar akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ilk bor yo'riqchi-serjantlar forumi o'tkazildi.


Tantanali tarzda boshlangan forumda mudofaa vazirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinnbosari polkovnik Qodir Tursunov Yangi O'zbekiston zamonaviy armiyasi saflarida bo'linmalarning jangovar va intellektual salohiyatini yuksaltirish, harbiy intizom va sog'lom muhitni ta'minlashda malakali yo'riqchi-serjantlarning faoliyati muhim o'rinn tutishini ta'kidladi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida bo'linmalarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha yo'riqchi-serjantlar faoliyatini rivojlantirish yuzasidan istiqboldagi chora-tadbirlar xususida to'xtaldi.

Videokonferens-aloqa shaklida o'tkazilgan tadbirda hududlardan harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlari, ularning jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinnbosarlari, harbiy qism komandirlari va yo'riqchi-serjantlar tarkibi ishtirok etdi.

Forumning kun tartibidan bir-biridan qiziqarli tadbirlar o'rinn oldi. "Jangchining ruhiy barqarorligini ta'minlashda jangovar psixologik mashqlarning o'rni", "Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi yo'riqchi-serjantlarga yaratilgan imkoniyatlar va mavqeyini oshirish bo'yicha istiqboldagi tadbirlar" singari sermazmun mavzulardagi chiqishlar shular jumlasidan.



III darajali serjant Olim BERDYEV



– Bugun harbiy okruglar kesimida hamkasblarimiz bilan xizmat faoliyatimizdagi ilg'or tajriba va o'zaro fikr almashdik, – deydi forum ishtirokchisi III darajali serjant J. Jumayev. – Ushbu forum komandirlarning asosiy yordamchisi sifatida yo'riqchi-serjantlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, istiqbolli rejalarini belgilab olishimizga turki beradi. Qolaversa, jangovar tayyorgarlik tadbirlarini takomillashtirish, yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi mas'uliyatimizni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Forum yakunida Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar tayyorgarlik tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy vosita va usullar ko'rgazmasi namoyish etildi hamda psixologik tayyorgarlik markazida interfaol treninglar o'tkazildi.

Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

"Xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir".

**Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

"Askarsiz millat jonsiz gavda hukmidadir. O'zining yerlik xalqidan askari bo'lmagan bir yurt qo'riqchisiz bir istehkom kabitidir. Askarlik bir millatning hayot-mamot masalasini hal qilish uchun zo'r ro'llar o'ynaydurg'on bir kuchdir. Har bir yengish va yengilishning boisi askardir.

Hoji MUIN



YOSHLAR! YURTNING UMIDI YOLG'UZ SIZGADUR!



Turkistonning taraqqiyarvar zotlaridan biri – shoir, dramaturg, tarjimon, muallim, muxbir... Hoji Muin salaflari kabi "Askarlik, maorif, til, adabiyot, ziroat, tijorat va sanoyi... Hayoti ijtimoiyamizda lozim bo'lg'an bu narsalarning barchasi hozirda bizda bormi?" deya savol qo'yadi 1918-yil "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida chop etilgan "Bizga nima kerak?" nomli maqolasida. Va "siyosiy ahvolning" jadal o'zgarishi "fursat bermas"ligi ayon bo'lsa-da, "zamonni g'animat bilib", eng zarur "tadbir va choralarg'a" kirishish lozimligini qat'iy ta'kid etadi. "Hozirgi vazifamizg'a qarag'onda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy sho'rish va inqilob xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu sho'rishdan Vatan va Hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir", deydi. Mazkur maqolaga quyidagi so'zlar bilan nuqta qo'yildi:

"Ey Turkiston ishchisi! Oyoqg'a tur!
Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla!
Ey turkistonli turk o'g'li! Yarog'ingni
ol! Yovingni ot! Hurriyatningni saqla!"

Turkistonlilar o'z yo'lidan adashib, Turkiston g'orat etilgan yillarda tug'ilgan Hoji Muinning ijtimoiy hayotdagi faoliyi 1901-yil muborak Haj safaridan qaytganidan keyin boshlanadi. She'rlariga "Nahif" ("Ojiz"), "Mehriy" taxalluslarini qo'ygan yosh shoirga Mahmudxo'ja Behbudiy kuchli ruhiy va g'oyaviy ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir tufayli u arosatda qolgan millat va mamlakat ishlarida o'zini namoyon etib, keyinchalik shoir, adib, muallim, ma'rifatchi, bir so'z bilan aytganda, taraqqiyarvar sifatida taniladi.

Hoji Muinning 1917-yil "Hurriyat" gazetasida e'lon qilingan "Sho'royi islomiya va saylov" nomli maqolasida jamiyat hayoti, tarqoqlik sababi jadidlarning ahvoli yorqin ifoda etilgan. Unda Samarkand shahri dumasiga saylov voqeasi bayon qilingan. Bu saylovida musulmonlar "Sho'royi islom" va "Zahmatkashlar ittifoqi" nomli ikki firqaga bo'linib, birinchisi "boy, ulamolar", ikkinchisi yangilik istagan yoshlardan iborat edi. "Ko'b boyalar va mullolar" "zahmatkashlar" haqida tuhmatlar qilib, ularni "jadidchi va kofir"ga chiqaradilar. Hatto mahallalarda "zahmatkashlar va yoshlar"ga qarshi targ'ibot, fitnalar uyuştiradilar. Muallifning qat'iy aytishicha, "bechora zahmatkashlar va ular tarafdarları"ning ko'pchiligi jismonan mahv etilib, "bir nechasi o'lum to'shaki"ka mixlanadi. "Munday yirtqichlik va vahshiylikni ko'rgan bechora xalq birdan qo'rquшиб" qoladi. Va tabiiy ravishda "Sho'royi islom"ga ovoz beradi. Afsuslanrali bu voqeaga "hukumatning ham bir oz tadbirdizligi sabab bo'ldi. Chunonchi, hukumat saylov to'g'risida shuncha muxolifat va nizo borlig'inib bilib turib, saylov kunida biror tadbir qilmadi. Ya'ni har uchastkada aqalli 20 nafar askar qo'ymadi.

...Har nima bo'ldi, endi o'tdi. Bu voqeanning bosh sababi "Sho'royi islom"dur, deydi Hoji Muin.

Bu yigirmanchi asr boshlaridagi qizillar va oglarning Turkistonni tortqilashlaridan bir ko'rinish.

1908-yilda alifbo darsligini yozgan, ham eski, ham yangi usulidagi maktablarda muallimlik qilgan, "Hurriyat", "Mehnatkashlar o'qi", "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Ovozi tojik", "Tayoq", "Mashrab", "Mushfiqiy" nomli gazeta va jurnallarda ishlagan Hoji Muinning hayoti bugungi kun ziyolisi uchun ibratlarga to'la bir ko'zgudir. Unga qaragan ziyoli o'zini ko'rishi mumkin.

"Man burung'i zamonda ilm va madaniyat o'chog'i bo'lg'onim uchun dunyoning ma'mur va mas'ud o'lkasidan sanalar edim. Shuning uchun ediki, hozirda qo'ynimdag'i (xarobazorlardan iborat bo'lg'on) Samarqand – "Samarqand firdavsmonand" atalur edi. Chin o'g'onlарimdan bo'lg'on u botur, u jahongir Temur davrida ko'rg'on umroniyat va baxtiyorlig'im qiyomatg'acha esimdan chiqmas.

Oh! Na bo'idikim, so'ngg'i bolalarim ilm va maorifdan uzoqlashdilar. Otabobolarining yo'llaridan chiqdilar. Nega otalarindan meros qolq'on maorifni tashlab jaholatni ixtiyor etdilar?"

Bu o'tli so'zlar 1917-yil "Hurriyat" gazetasining 10-noyabr sonida "Yurt qayg'usi" ismi bilan chop etilgan. "Turkistonning fig'oni" mamlakat yoshlari chorlov bilan yakun topadi:

"Ay suyukli o'g'onlарim,
uyg'oningiz!
Uyg'oningiz!
Tong otdi, endi uxlamoq harom!..
Qiyomat qo'pdi, endi tek turmak
mahol! Ana tinglangiz! Hozirgi
madaniyatning suri Isrofili, oxir
zamonning muazzini na der? Derki,
"Hayya alal falah!"

Fitratning "Munozara" asari tarjmoni, "To'y", "Eski mакtab – yangi mакtab", "Ko'knori", "Mazluma xotin" pyesalari muallifi Hoji Muin 1938-yil 24-yanvarda hibsga olinib, NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan 10 yilga qamaladi. 1942-yil 27-iyulda Rossianing Perm viloyati Solikamsk shahrida azob-uqubat ichida vafot etadi.

Hoji Muinning bundan 100 yil narida, 1920-yilda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 15-fevral sonida e'lon qilingan "Yoshlar! Yurtning umidi yolg'uz sizgadur!" nomli maqolasini o'qib ko'ring. Jadidlardan keyingi o'nlab yillarda kechgan voqealar ko'z o'ngingizda jonlansa, shuning bilan barobar bu kungi yoshlar uchun ham qaynoq bir xitob bo'lsa, ne ajab?!

"Yoshlar! Yurtning umidi yolg'uz sizgadur!"

Turkistonning xususan boshindan o'tkardigi fojealarni bir-bir sanasak, necha jild kitob bo'ladir va bu fojealarning boshlicha sababi bilimsizlik, jaholat, muhokamasizlik, bir-birovga sui zan (badgumonlik), bir-birovga ishonmaslik, biron kattaroq yo mo'ysafid odam har nima desa ani Xudo tarafindan kelgan vahiyedek bilmaklikdan iborat edi. Nodonligimiz shu darajadadirki, asrlardan beri islam olami, Sharq dunyosining boshig'a qanday falokatlar keldi, bu falokatlarning sababi kimlar va nima edikini bilmaymiz. Holo ham bilmaslikimizga davomat qilmoqdamiz. O'tgan asrlarni bir yoqqa qo'yayluk, yolg'uz shu keyingi to'rt-besh yilda Turkistonda nimalar bo'ldi, xabarimiz yo'q.

Yoshlar!

Ay, yosh yigirmadan oshgan bиродарлар, сизлар bundan buyon мундақа ахмоqlarning so'зларига qulq solmang. Bu fursatlarni г'анимат bilib, ilm yo'lig'a yuguring!

Vataningiz, bu bekas Vataningizning dardiya davo bo'ladurgon er va olim yigitlar bo'imoqqa cholishing!

O'tgan yil shundaqa og'ularg'a aldanib Vatandan qochg'an, yo'lda ushlanib, turmalarga qamalgan bir necha bиродарларингиз bu yil sizning jamiyatining ishlilik eng faol yigitlaridandir. Ularning eslariga o'tgan yildagi voqeа tushsa qizarib, uyolalar, u ishlarga sabab bo'lg'onlarga nafrat bayon qilalar.

So'zning qisqasi: bizga nodon odamlarning maslahatindan zarardan boshqa narsa tegmaydur. U odamlar mundan so'нgra aqlg'a ham kelmaydurlar. Siz o'z pok vujudingiz, g'arazsiz ko'nglingiz bilan ish qiling!

Yoshlar! Yurtning umidi yolg'uz sizgadir!

Furqat ERGASHEV



MARDLAR

JASORATI MANGU YASHAYDI

Bir yigit o'sib-ulq'ayib, kamolotga yetishida ota-onaning, yurting hissasi katta. Albatta buni oqlash har bir mard o'g'lon zimmasidagi iftixorli mas'uliyat. Vatanni sevish, har qarich yerini asrab-avaylash, hatto shirin jonini fido qilish yuksak g'urur, o'chmas jasorat.

Jang maydonida, Vatan mudofaasida jangchining har tomonlama mukammal qurollanishi g'oliblikning asosiy omiliidir. Ammo qanchalik tish-tirnog'igacha quollangan bo'lishidan qat'i nazar jangchining muvaffaqiyat qozonishi diyoriga bo'lgan muhabbat bilan bog'liqdir. Muzaffar bo'lib, sharafli nom qoldirishga ota o'giti, ona mehri, yurt ishonchi bilan erishiladi va bu jangchiga yuksak ishonch bag'ishlaydi. Har qanday g'ov-g'animni yer tishlatadi. Vatanga muhabbatning har qanday zamonaviy quroldan qudratiligi jangchining ko'zidagi ishonchida ko'rindi.

Tarixan Turon zamini g'animga Vatanni qanday sevishni amalda ko'rsatgan farzandlari bilan tillarda dostondir. Chingizxon istilosiga davrida umrining oxirigacha matonat bilan yurtini himoya qilgan Jaloliddin Manguberdining mardligi dovrug qozongan. Ayniqsa, Sind daryosi bo'yidagi jangda Chingizxon qo'shin to'plab, Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va

kuchi ozligi sababli Sind daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdining daryodan o'tishga imkon bermay, qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrdagi imkoniyatlari tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi to'rt ming jangchisi bilan 18–20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o'ng sohiliga suzib o'tadi. Chingizxon Jaloliddinining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'llilariga qarab: "Ota o'g'li mana shunday bo'lishi lozim!" degan.

Kezi kelganda or-nomus, Vatan sha'ni uchun kurashib g'animni ruhan yenggan ajdodlarimiz bu zaminda oz emas. Shu mavzuda so'z ketganda Shayx Najmuddin Kubroning chingiziy yovga qarshi kurashi har bir kishi uchun namunadir. Chingizxon bosqini davrida Shayx Najmuddin Kubro nomi dunyoga tanilgan edi, bunga yaqqol dalil, Chingizxon 76 yoshli Shayx Najmuddin Kubro dan o'z yaqinlari va shogirdlarini olib, shaharni tark etishni so'ragan. Lekin Najmuddin Kubro shahar himoyachilariga qarata iltijo bilan "Yo Vatan, yo sharafli o'lim!" deb xitob qiladi. Vatanni manfaat uchun sevmagan insonlar ko'rsatgan sadoqat va jasorat necha asrlar o'tsa-da, mangu yashaydi.

Dunyo tarixida buyuk sarkarda nomi bilan dovrug qozongan sohibqiron Amir Temur buyuk davlatchilik asoschisi sifatida Turon zaminida o'z hukmronligini o'rnatguncha qanchadan qancha jang-ujadallarni boshidan o'tkazdi. Amir Temurning qilichiga "Kuch adolatda" deb yozilgani bezj emas. Amir Temur har bir jangida o'z askarlariga mardlikda namuna ko'rsatgan, odillikda adolatni namoyon qilgan. O'sha davrdagi mo'g'ul hukmdor bosqinchilarining boshboshoqligidan aql-idroki, mohirona jang uslublari orqali Vatan yerlarini yovdan tozaladi. O'z saltanatiga asos soldi. Davlat boshqaruvida ham odillik tamoyillariga qat'iy amal qildi.

Sohibqiron biror davlat bilan jang qilishidan oldin sulh tuzishni taklif etgan, ya'ni qon to'kilishini ruhan istamagan. Pand-nasihat, saltanat boshqaruvi ilmiga to'la bo'lgan dunyoga mashhur "Temur tuzuklari"da "Davlat ishlaring to'qqiz ulushini mashvarat, kengash va tadbir, qolgan bir ulushini qilich bilan bajo keltirdim", deb ta'kidlagani bunga yaqqol misoldir. Bu esa nechog'li jangvar sarkarda bo'lmisin, sulhni afzal ko'rgani uning kuchli aql-idrok sohibi ekanidan dalolat beradi.

Taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan Yevropa davlatlari Amir Temurning o'sha davrda olib borgan dunyo siyosiy maydonidagi rolidan hozirgacha minnatdorligi Turk sultonii Boyazid Yildirimning Yevropaga bosqinchilik yurishlarini to'xtatgani bilan baholanadi. Anqara jangida Amir Temur Boyazid Yildirimni mag'lub qiladi, bu esa butun Yevropani Turk sultonii bosqinidan saqlab qoladi. Amir Temur har bir yurishiga puxta tayyorgarlik ko'rgani tufayli janglarda g'alaba qozongan. U hech qachon biror

urushni ko'r-ko'rona, faqat harbiy omadga ishonib boshlamagan. Har bir harbiy yurishga jiddiy, aniq hisob-kitob asosida, uzoq yillarda davomida hozirlik ko'rgan. Masalan, u "Anqara jangida Boyazid ustidan qozongan g'alabasiga aql bilan erishdi", deb fikr bildirgan Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafa Kamol Otaturk. Albatta, Amir Temurning ensiklopedik ilm sohibi, davlat boshqaruvida odil, jangda jasur bo'lganligi dunyonи hozirgacha lol qoldirib kelmoqda.


Tinchlik – oliy ne'mat, uning qadriga yetish har birimizning burchimiz. Yurtimiz sarhadlarini ko'z qorachig'idek qo'riqlayotgan mard o'g'onlar qahramondir. Hozirgi kunda el-yurt osoyishtaligini ta'minlab kelayotgan dovyurak o'g'onlardan bir guruhi so'nggi ikki yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan "Eng ilg'or jangchi", Buyuk Britaniyada "Kembriya patruli", Pokistonda "Jamo'a ruhi" musobaqalarida faxrli 1-o'rinni hamda yaqinda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan "Xalqaro ilmiy jangvar tayyorgarlik" musobaqasida mutlaq g'oliblikni qo'iga kiritgani buning yaqqol misolidir. Koreya Respublikasida maxsus bo'linmalar o'rtasida bo'lib o'tgan "I xalqaro ilmiy jangvar tayyorgarlik" musobaqasida kuchli bilim va amaliy ko'nikmalarni ko'rsatib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallagan o'g'onlar dunyo sahnida hech kimdan kam emasligini isbotlab kelmoqda. Albatta, bu zaminning yorqin tarixi, duogo'y onalari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi jasorati, Shayx Najmuddin Kubro sharifi, buyuk sarkarda Amir Temur tuzuklarini o'rganib, kamolotga yetgan bu farzandlar qudratli quro bilan qurollangan.

Har qanday tinch yurt rivojlanib, taraqqiy topishining omillaridan biri xotirjamlikdir. Ya'ni fuqarolarning tinchlikdan ko'ngli to'qligi ularning Vatan rivojiga hissa qo'shishini ta'minlaydi. Bunday zalvarli ishni mard o'g'onlar har qanday qiyinchilikka qaramay, astoydil ado etib kelmoqda. Shuning uchun ruhan yetuk, jismonan baquvvat, fikri teran yigitlar elimiz tayanchidir.

Hozir dunyoda zimdan ketayotgan qurollanish poygasida har bir davlat o'z armiyasini zamonaviy quro bilan qurollantirishga intilmoqda. Jangchining qanchalik kuchli qurollangani jang taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Ammo irodasiz askar eng so'nggi zamon talabiga javob beradigan quro bilan qurollansayu, unda Vatanga mehr, ota-onaga hurmat, yorga ishq qalbida jo'sh urmasa, xalqini sevmasa, kmlardir tomonidan boshqariladigan robotdan farqi qolmaydi. Aksincha, elini ardoqlaydigan, tinchlikning qadrini biladigan, ham jismonan, ham ruhan komillikka erishgan o'g'onlar har qanday vaziyatda Vatanni himoya qilib, ajodolarga munosib shonini ko'rsatadilar.

MUTOLAA

HAYOTIY EHTIYOJDIR



Harbiy qism va muassasalarda tashkil qilingan kitob yarmarkalarini kuzatganman, gazetamizda bu haqda xabarlar e'lon qilingan. E'tiborli tomoni shundaki, ayni o'sha kunlari harbiy qism va muassasalar eshiklari harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun ochiq bo'ladi. Bu manzarani chetdan kuzatsangiz, asalari uyasiga o'xshaydi, bolalarning g'uvullashi, kitob tanlashlari ko'zni quvontiradi. Ko'pchilik o'zi va farzandlari uchun anchagina kitoblar xarid qiladi. Ular orasida birorta kitob xarid qilmaydiganlar ham bo'ladi. Onasiga umidvor tikilgan nigohlarga ham guvoh bo'lganman.

2023-yil ham nihoyasiga yetib qoldi. Kitoblar targ'ibotini deyarli to'xtatanimiz yo'q. Bugun biror asar tavsiya qilmoqchi emasiz, bugun kitob va kitobsevarlik haqida so'z aytamiz. Bu borada aytadigan gaplarimiz ko'p, ammo... tinglovchilar bormikan!?

O'QISH

Siz ham endigina o'qishni o'rganayotgan bolaning o'qishini kuzatganmisiz? Butun vujudi bilan, yurakchasi ko'zlarida aks etib, chuqur jiddiyat bilan yutinib, nafas olishlari eshitilib, berilib o'qiyotgan go'dak... Ana shu ishtyoqni qanday saqlab qolish mumkin? Yoki qanday rivojlantirish mumkin? Bu bola hayotidagi eng, eng muhim lahzalardir! Ayni shu lahzalar rag'batlantiring, o'zingizni bolangiz o'rniga qo'yib ko'ring, u bir parchagina matnni o'qimadi, u ulkan bir kitobni o'qib chiqqandek bo'ldi. Taassurotlarini so'rang, telefonidan shu go'dak uchun biroz bo'lsa ham uzoqlashing! Yana bir nimalar o'qib berishini so'rang, biror yilcha o'tib-o'tmay, o'zi kitob qidirib qoladi. Shunda ham qanday asar o'qiyotgani bilan qiziqing, asarning eng ta'sirli joyini so'rang. Ana shunday qilib astasekin hur fikrli inson shakllanadi. Har qanday g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydigan, olamga savoli bor inson ulg'ayadi.

SAFARDA

Termizdagi harbiy qismlardan birining kutubxonasida askarlar tanlovga tayyorgarlik ko'rayotgani ustidan chiqdik. O'n chog'li bir-biridan ko'rkam o'g'lonlar. Tabiiy, ular bilan suhbatimiz kitoblar haqida bo'lidi. Ular shunday savollar berdi:

– Opa, shu kunga qadar nechta kitob o'qigansiz?
Bunaqa savolni kutmagan edim.

– O'qigan kitoblarimni sanash xayolimga ham kelmagan ekan. Chunki kitob o'qish men uchun hayoti ehtiyoj. Xuddi yemak-ichmakka, kiyimnakka, atrofimdagisi olamni anglashga bo'lgan ehtiyojim kabi ehtiyoj. Nurga, yorug'likka bo'lganidek insonning kitoblarga ehtiyoji bor.

– Jahon adabiyotidan qaysi yozuvchilarni tavsiya qilasiz?

– Bu savolga sizning qiziqishlaringizdan kelib chiqib javob bersam, to'g'riq bo'ladi. Agar siz detektiv asarlarga ishqiboz bo'lsangiz,

Alister Maklin kitoblarini tavsiya etaman. Sadoqat, jasorat, mardlik eng yuksak darajada yoritilgan. Insonning har qanday sharoitda ham inson bo'lib qolishi kerakligini anglashni istasangiz, Jek London asarlariga murojaat qiling. Inson manzaralarini, hayot ranglarini ko'rishni istasangiz, O. Genri novellalarini o'qing. Sevgi haqida o'qishni hamma istaydi. Bu buyuk va noyob tuyg'uning asiri bo'lgan inson kechinmalarini, hissiyotlarini anglamoqchi bo'lsangiz, Stefan Sveyg asarlarini tavsiya etaman.

Bu borada tavsiyalarimni yana uzoq davom ettirishim mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan adiblarning ko'pgina asarlar o'zbek adabiy tiliga ham chevirilgan.

– O'zbek adiblari-chi, ulardan kimlarning asarlarini tavsiya etasiz?

– O-oo, ular juda ko'p. Shunday bo'lsa-da, ulardan birini tavsiya etishim kerak va zarur deb hisoblayman. Ehtimol eshitgandirsiz, bu asar haqida anchagina iliq fikrlar bildirildi, yoshlarning katta qismi qizg'in qarshiladi. Yozuvchi Javlon Jovliyevning "Qo'rhma" asari! Asarda Vatan taraqqiyoti uchun yurtsevar oydinlar tavsiyasi bilan Germaniyaga o'qishga ketgan yetmish ikki o'g'il-qiz haqida so'z bor. O'sha yetmish ikki nafar yosh ham sizlardek, Vatanning bir parchasi edilar. Ruhingizga yaqin, qalbingizdagi jo'shqin tuyg'ularingizga hamohang bir asar.

Savollarga jon-dilim bilan javob berdim va... qalbim injidi. Nega deysizmi? Chunki bir necha yildan beri "Vatanparvar" gazetasining "Keling, kitob o'qiyimiz!" sahifasi aynan jahon va o'zbek adiblarini targ'ib qiladi. Demak... bu haqda gapirigm yo'q.

O'QISHGA VAQTINGIZ BORMI?

O'qishga vaqtningiz bormi? Asosiy vaqtningizni qanday kechirasiz? Telefonda hamma narsani topish mumkin... Rostdan ham hamma narsani topish mumkinmi? O'zi nimalarni qidirasiz? Kerak, kerak bo'limgan xabarlarni qanday ajratasiz? Qiziqarli xabarlar ko'p... Nimasi qiziqarli? Qotilliklar, insoniyatning ajralmas balosi – fahshning ochiqligimi? Inson sha'nini yerga uradigan tuhmatlar, haqiqat pardasiga o'ralgan malomatlarmi?

Har kim izlaganini topadi. Hayotda ham, internet kengliklarida ham. Hikmat izlaylik, qalblarga oydinlik olib kiradigan voqealar haqida, eng ko'p o'qiladigan kitoblar haqida so'zlashaylik. Chunki kitoblar dunyomizni o'zgartiradi, ko'nglimizni oydin hislarga oshno etadi.

Men ham siz kabi ijtimoiy tarmoqlarni kuzataman. Ayrim narsalarini gazeta sahifalarida bo'lishgim keladi. Bir oycha avval o'qiganim bir voqeani ko'chirib

olgan edim. Afsuski, muallifining ism-familiyasini yozishni unutibman. Amerika Qo'shma Shtatlari yashayotgan vatandoshimiz edi. G'oyibona uzr so'ragan holda uning o'g'i bilan sayohati haqidagi parchani sizlarga havola qilaman.

"Mana shu tonnelni ko'rish uchun, o'g'lim ikkalamiz salkam 4 kilometr yo'l yurib bordik. Bu ko'chaga uzunligi 22 fut bo'lgan mashinalar kirishi taviya etilmas ekan. Biz minib yurgan g'ildirak ustidagi uyimiz 24 fut edi. Shu sababli ulovni qoldirib, piyoda borishga qaror qildik.

Tonnel 1937-yilda askarlar tomonidan qurilgan. Balandligi 7 fut.

Qaytishda yana piyoda yurmaslik uchun o'tkinchi mashinalardan olib ketishini so'radik. Afsuski, ular bizning o'zbeklarimizga o'xshab "O'tiringlar!" deb, mashinasiga mindirib olib ketavermaydi.

Harqalay bir yigit to'xtadi. "Avtoturargohgacha tashlab qo'ya olasizmi?" deb so'radim. Qaysi avtoturargohligini fahmlaguncha "yo'Ining oxirigacha", dedim osonroq tushunishi uchun.

"Xo'p, uzr, lekin mashinamning ichi juda betartib", deb old o'rindiqdagi narsalarni orqa o'rindiqqa ola boshladi.

Mashinaning ichi rostdan ham juda betartib edi. Ammo gap bu haqda emas. Orqa o'rindiqda qalin muqovali o'ntacha kitob bor edi! Ko'p kitob o'qir ekan, deb o'yladim.

Mashinaga o'tirdik. Oyoq ostida yegulik qog'ozlarini ko'rib, yigit mashinada uxlaganligini taxmin qildim. Gapga soldim.

– Ko'p kitob o'qiyiszmi?

– Ha...

– Qancha kitob o'qidingiz?

– Hmm, bu yil hisobidan 47 ta o'qidim.

– 47 ta?! Vau! Nima ish qilasiz?

– Harbiyman. (O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'yagan edim, sochiga qarab) Olti oy dengizda bo'ldik. Shunga kitob o'qish imkonni ko'proq bo'ldi.

– Internet yo'qmidi?

– Bor edi, ammo men kitob o'qishga harakat qildim.

– Hozir ko'pchilik kitob o'qishdan ko'ra ko'proq vaqtini internetda o'tkazadi, – dedim o'zimdan kelib chiqib.

– Ha, shunaqa, – dedi va so'radi, – sizlar qayerliksziz?

– Biz asli O'zbekistonidan. Hozir Ohioda turamiz. Siz-chi?

– Men Michigandanman, hozir Kaliforniya janubida yashayman.

– Yoshingiz nechada?

– 23 da.

– Tushunarli...

Manzilga yetib keldik. Mashinani juda sokin, shoshilmasdan boshqarar ekan. Shu qisqa vaqt ichida o'zimga "Ko'proq kitob o'qishim kerak" degan rag'bat oldim. Yigirma uch yashar yigitning olti oyda 47 ta kitob o'qiganini bilganimdan so'ng o'zimni juda ko'p ilmdan qolib ketgandek his qildim".

Men yuqoridagi voqeani o'qiganimdan beri bot-bot o'ylanaman, o'sha michiganlik harbiy yigitga havas qilaman: bizning yigitlarimiz orasida ham shunday o'qirmanlar bormikan? Bor bo'lsa, o'zlaridan xabar bersalar edi...

Bugun mamlakatimizda ayollarga qaratilayotgan e'tibor, ularning hayotdagi faolligini yanada oshirish va gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar

ko'lami tobora kengayib bormoqda. Ayollarning jamiyat va davlat xizmatlaridagi ishtiroki kundan kunga ortib borayotgan bir paytda, ular Qurolli Kuchlarimiz saflarida erkaklar bilan yonma-yon, yelkama-yelka turgan holda mardonavor xizmat qilib, katta muvaffaqiyatlarga erishib kelishmoqda.



G'OLIBLAR MUNOSIB TAQDIRLANDI



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida ham ayol harbiy xizmatchi va ishchi-xizmatchilar, shuningdek harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, harbiy jamoalar hamda oilalardagi axloqiy-ruhiy muhitni yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar va erishilayotgan natijalar samarasi o'laroq, bugungi kunda ayol harbiy xizmatchilarning bir guruhi "Sodiq xizmatlari uchun" va "Shuhrat" medallari, "To'maris" hamda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Ko'p yillarda yuksak fidoyilik hamda vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib, o'z iqtidoriyu salohiyati bilan safdoshlariga o'mak bo'lib kelayotgan mayor Nargiza Babadjanova "Yil ayoli" milliy tanlovida munosib ishtirok etib, respublika miqyosida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishi sarhadlarimiz posbonlarining cheksiz quvonchiga sabab bo'ldi.

Mayor Nargiza Babadjanova yakuniy natijalarga ko'ra, 147 nafar ayol orasidan faxrli 2-o'ringa munosib deb topildi va tantanali bayram tadbirda maxsus diplom, statuetka hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

– Chegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchi va ishchi-xizmatchilar, shuningdek harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, harbiy jamoalar va oilalardagi axloqiy-ruhiy muhitni yanada mustahkamlash, harbiy oilalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazib, ular o'ttasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida xotin-qizlar kengashlari tashkil etilgan bo'lib, ushbu kengashlarda faoliyat olib borayotgan mas'ullarning malakalarini oshirish maqsadida

muntazam ravishda o'quv-uslubiy yig'inlar, mahorat darslari, seminarlar va psixologik treninglar o'tkazib kelinmoqda, – deydi mayor Nargiza Babadjanova.
– Faoliyatimiz davomida ko'proq chekka hududlarda joylashgan chegara bo'linmalariga xizmat safarlarini uyushtirishga harakat qilamiz. Maqsadimiz harbiy oilalardagi fikrlar, kayfiyat va ularning ehtiyojlarini doimiy o'rganib borish, turmush tarzlaridan muntazam xabardor bo'lib, mavjud muammolarini o'z vaqtida hal qilinishiga erishishdan iborat. Tanlova faoliyatimiz davomida amalga oshirilayotgan ana shunday chora-tadbirlar, erishayotgan natijalarimiz va kelgusida amalga

oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlarimiz haqida so'zlovchi materiallarni taqdim etdik. Ishtirokimiz hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholanib, faxrli o'rnlarga munosib ko'rilganimizdan nihoyatda baxtiyormiz. Albatta, o'tkazilayotgan bunday tanlovlар mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, oila va farzand tarbiyasida ibrat ko'rsatayotgan, tizim nufuzini oshirishda faol ishtirok etib kelayotgan xotin-qizlarimizni qo'llab-quvvatlash, ularni jamoatchilikka yaqindan tanishtirish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, professional salohiyati, ishbilarmonlik, raqobatbardoshlik sifatlarini hamda bilim darajasini yanada oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biz yana bir bor hamkasbimizni g'alaba bilan qutlab, kelgusidagi xizmat faoliyatida bundan-da, yuqori natijalarga erishishiga tilakdoshmiz!

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

EHTIROM

Xalqimizning eng oliy fazilatlaridan biri kattalarga hurmat va ehtirom ko'rsatishdir. Ilkinchi jahon urushida halok bo'lgan, fashizm ustidan g'abalaga munosib hissa qo'shgan insonlarni xotirlash, hozirda hayot bo'lgan urush va mehnat faxriylarini qadrash, ular bosib o'tgan yo'llarni o'rganib, obod kunlarimizga shukronalar aytish barchamizning chinakam insoniylik burchimizdir.



CHINAKAM BAYRAM SOVG'ASI

Yangi yil bayrami munosabati bilan Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy xizmatchilari poytaxtimizning Chilonzor va Yunusobod tumanlarida istiqomat qilayotgan bir nechta Ilkinchi jahon urushi faxriylari va nogironlari,

"Leningrad qamali" ishtirokchilarining xonadoniga bordi.

Yo'qlov davomida mehnat faxriylari va urush qatnashchilarining holdidan xabar olinib, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi yil tabrig'i" o'qib eshitirildi hamda bir martalik pul mukofoti, qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Nuroniyalar mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlikni qadrlash kerakligini ta'kidlab, faxriylarga qaratilgan g'amxo'rlik uchun o'z tashakkurini bildirdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

Shaxs + psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Shaxs tushunchasi "yuz", "soxta qiyofa" so'zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida "soxta qiyofa" so'zi "rol", ya'ni odam boshqalar bilan muloqotda bo'lganida kiyib oladigan biror bir ijtimoiy niqob ma'nosini anglatuvchi "rol"ni bildirar edi. Lotincha persone so'zi ham shu ma'noni anglatadi. Personare + niqob ortidan so'zlashish. Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi Rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu yovuz, laganbardor, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo'yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning axloqiy belgilariga ishora edi.

SHAXSDA "MEN" NING



Inson o'ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunnyoda, aniqrog'i, ko'plab duniyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonamizning mashhur faylasuflaridan biri Yurgen Xabermas asosiyalar sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo ("bizning olam"), ichki dunyo ("mening olamim", individuallik va betakrorlilik "mening mayjudligimning betakrorligi") tarzida ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni o'z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo'llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi **jismli faoliyat** bo'lgan olam. Insonni atrofdagi olamga va o'ziga nisbatan munosabatlarning rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yo'nalishini anglash uchun insonning olamda tutgan o'rnni aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondashish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan o'rni bilan aniqlanuvchi jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog'liqdir. Insonning biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o'rganishda dastlabki holat bo'lib uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarni tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi.

Umuman olganda, odamning nechtagacha "men" bo'lishi mumkin? Keling, yuqorida keltirilgan ba'zi "men"larni sanab o'tamiz.

1. **Subyektiv (nohaqlik) men** – bu da'vogarlik darajasi, yutuqlar motivatsi-

yasi, o'zini yuzaga chiqarishga intilish, shuningdek o'z qobiliyatlarini bo'rttirib ko'rsatish. Bunday "men"ning yana bir turi sifatida tug'ma qirra – boshqalar harakatini noto'g'ri tushuntirish, shaxsiy sifat va layoqatlarini oshirib ko'rsatishdan iborat "sevimli men" namoyon bo'ladi.

2. **Aks ettirilgan men** ijtimoiylashuv jarayonida paydo bo'ladi. Bu tasavvurlar yig'indisi boshqalarning biz haqimizdagagi fikrlaridir. Individ boshqalarga qarab, o'z harakatlariga muntazam ravishda o'zgartirishlar kiritib turadi. Boshqalar uning uchun ijtimoiy oyna vazifasini bajaradi.

3. **Boshqalar kutgan men** – bu mening fikrimcha, boshqalar menda ko'rmoqchi bo'lganlari, mendan kutayotganlari. Bunda ikkilangan aks ettirishni ta'kidlash lozim: menda haqiqatani ham ko'rmoqchi bo'lgan xususiyatlar emas, mening fikrimcha, ko'rmoqchi bo'lganlardir.

Ko'p hollarda "Kutilgan men" sohasini ota-onalar belgilaydi. Ba'zan ular o'z farzandlariga bu haqda to'g'ridan to'g'ri gapiradilar ("Haqiqiy musiqachi bo'lib yetishishingni orzu qilaman (olim, shoir va hokazo).

Odatda, "Kutilgan men" biz uchun obro'li bo'lgan insonga yo'nalgan holda tuziladi. Bu ota, ona, qarindoshlar yoki do'stlardan biri, ba'zida ustoz ham bo'lishi mumkin. Bu insonning obro'si qanchalik kuchli bo'lsa, uning kutilganlariga nisbatan yo'nalish ham shunchalik kuchli bo'ladi.

4. **Ko'rgazmali men** yoki "**Namoyishkorona men**" katta tantanalarda o'zining egallab turgan darajasini ko'rsatish, alohida ko'rinish uchun ko'chada kiyiladigan ko'yakni eslatadi. "Na-Men" – bu boshqalarda

yaxshi taassurot qoldirish uchun ko'rsatiladigan xulq-atvor aktlari yig'indisi. Bunga, shuningdek biz o'z darajamiz yoki ijtimoiy rolimizdan qat'i nazar bildiradigan qarashlar, g'oyalari, xulq-atvor odati va shu kabilarni kiritish mumkin.

5. **"Uydagi men"** ko'chalik ko'yakni yechib, xulq-atvorning ko'rgazmali odatlarini tashlab, bo'shashganda namoyon bo'ladi. Masalan, yuvosh ziyo muhandis uyidagi ayoli va bolalarini qiyaydigan zolimga aylanadi.

6. **"Samimi men"** – eng yaqin odamlardan ham si tutiladigan "Uydagi men"ning yashirin qismi. Har birimizda, hatto yaqin odamlarimizdan yashiradigan sirlarimiz topiladi. U o'zimiz yakka qolganimizda ochishga imkon berishimiz mumkin bo'lgan, qachondir sodir etilgan va kechirib bo'lmaydigan xatolik hisoblanadigan, anglanmagan va boshqalar tomonidan qoralanadigan istaklar (*ayniqsa, jinsiy*) va boshqalar kabi yomon odatlardan shakllanadi. Boshqacha aytganda, bu biz boshqalarda ta'na qiladigan, lekin o'zimiz namoyon qiladigan harakatlar va qirralar uchun zaxiradir.

"Men"ning oxirgi uch turi ma'lum ko'rinishda bir-biri bilan yoki o'zaro bog'liq bo'ladi. "Men"ning boshqa turlariga qaraganda, ularning o'zaro bog'liqligi kuchliroqdir. Quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:

- "Na-Men" – "Namoyishkorona men";
- "Uy-Men" – "Uydagi men";
- "Sa-Men" – "Samimi men".

Ular bunday tartibda boshqalarga ishonch bildirish va sir tutilgan haqiqat darajalarining kamayishi bo'yicha joylashtirilgan. Masalan, ko'pchilik bizning "Na-Men"imizni ko'proq, "Sa-Men"imizni esa kamroq biladilar. Lekin eng haqqoniy "men" "Sa-Men", eng yanglishi esa – "Na-Men". O'ttada yetarlicha haqqoniy va yaqin odamlarga tanish bo'lgan "Uy-Men" joylashadi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkin: "men"imiz bilan qanchalik kam odam tanish bo'lsa, u haqdagi ma'lumot shunchalik haqqoniy bo'ladi. "Men"imizni egallagan odamlar soni, "men"imiz haqidagi haqiqat hajmi teskari proporsional bog'liqlikda joylashadi:

- "Na-Men" – uzoqdagi boshqalar uchun ma'lumot;
- "Uy-Men" – yaqindagi boshqalar uchun ma'lumot;
- "Sa-Men" – faqat o'zi uchun ma'lumot.

Endi ajratilgan belgilanishlar asosida xulosalarni ifodalashimiz mumkin: "Na-Men" – bu o'zi haqidagi ko'proq yolg'on va ozgina haqiqatdir, boshqa so'zlar bilan aytganda, kamchiliklarning kamrog'ini ko'rsatib, afzalliklarni, ba'zida ular o'ylab topilgan bo'lsa ham yuqori darajada namoyish qilishdir;

"Uy-Men" – oraliq soha – 50 foizi ko'rsatiladigan kamchiliklar va 50 foizi namoyish etiladigan afzalliklar;

"Sa-Men" – haqiqatni yuqori darajada va yolg'oni kamroq darajada bilish, boshqacha aytganda, afzalliklarni kamroq oshib berish va kamchiliklarni ko'proq aniqlash.

Bunga o'xshash raqamlar chizig'i asosida pragmatik mulohazalar yotadi. Haqiqatan har birimizga ma'lumki, odam o'zidan hech narsani yashira olmaydi; yaqinlardan kamchiliklarni yashirish befoyda; uzoqdagi kamchiliklarni namoyish qilish xavflidir.

Uzoqdagi kamchiliklarni, yaxshisi, yashirgan va afzalliklarni ularga ko'rsatgan ma'qul. Individ notanish odamlarga o'z kamchiliklarni namoyish qilar ekan, uni tarbiya ko'rmangan odam sifatida qabul qilib, u bilan har qanday aloqalarni butunlay uzishlari mumkin.

"Na-Men" – nomaqbul tasavvurning yoki o'zini odamlarga ko'z-ko'z qilish ehtirosli istagining mevasi emas. Buning orqasida chuqur ijtimoiy maqsadga

muvofiqlik turadi: o'zining eng yaxshi sifatlarini namoyish qilishga intilish dan, o'ziga qarash malakasini, harakatlarni nazorat qilishni, niroyat, o'z xulq-atvoring takomillashtirishni shakllantiradi. O'zini tutish madaniyati uy sharotida emas, balki tantanali bayram kechalarida, do'stlar va mehmonlar davrasida yuzaga keladi.

Shunday qilib, o'z "men"ining mavjudligi kechinmasi go'daklik davrida boshlanadigan va I. Kon "Menni kashf etish" sifatida belgilagan shaxs shakllanishi jarayonining natijasi hisoblanadi. Bir yashar bola tanasidagi hissiyorlari bilan tashqaridagi jismalardan yuzaga keladigan hissiyorlari o'tasidagi farqni anglay boshlaydi. So'ngra, 2-3 yoshida bola unga zavq bag'ishlaydigan jarayon va o'zining jismalar bilan harakatlari natijasini kattalarning jismli harakatlarga "Men o'zim!" talabini qo'yan holda, ajrata boshlaydi. U birinchi marta o'zini atrof-muhitdan ayro tutish bilan birga, boshqalarga qarama-qarshi turgan holatda o'z harakatlarining subyekti sifatida anglay boshlaydi. Bolalar bog'chasi va maktab chegarasida, kichik sinflarda kattalar, ota-onalar va o'qituvchilar yordamida shaxsiy psixik sifatlarini baholashga vaqtincha yutuq va kamchiliklarning sababini anglash darajasida yondashish imkoniyati tug'iladi. Niroyat, o'smirlilik va o'spirinlik davrida ijtimoiy hayot va mehnat faoliyatiga faol kirishish natijasida ijtimoiy-axloqiy o'zini baholashning kengaytirilgan tizimi shakllana boshlaydi, o'zini anglash taraqqiyoti niroyasiga yetib, asosan, "men" obrazni tarkib topadi.

O'zini baholash – bu shaxs tomonidan o'z-o'zini, o'z imkoniyatlari, sifatlarini va odamlar orasidagi o'rnini baholashi. Bu psixologiyada o'zini anglashning eng ko'p organilgan tomoni.

Shaxs asosiga tegishli bo'lgan holda o'zini baholash xulq-atvoring muhim boshqaruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Odamning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari, uning o'ziga nisbatan tanqidiyligi, talabchanligi, yutuq va kamchiliklarga munosabati o'zini baholashga bog'liqdir. O'zini baholash qanday tarkib topadi? Boshqa odamning sifatlarini o'rgangan sayin shaxs xususiy bahoni ishlab chiqish imkonini yaratuvchi zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shaxsiy "men" haqida tarkib topgan baholanish shaxsnинг boshqa odamlarda ko'radiganlari va o'zidagi kuzatishlar bilan muntazam ravishda solishtirib borishning natijasidir. Odam o'zidagi ba'zi bir narsalarni bilgan holda o'zini u bilan solishtiradi, boshqaning ham uning shaxsiy sifatları, harakatlari, ifodalariga befarq emasligini taxmin qiladi; bularning barchasi shaxsni o'zini baholashiga tegishli bo'lib, uning ruhiy kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxs doim referent guruh (*real yoki ideal*)ga egadir, shaxs unda o'z qadriyatlarini o'zlashtirgani uchun bu guruh bilan hisoblashadi.

Hammadan ko'ra, ko'proq o'zimizni kuzatganimiz uchun o'zi to'g'risidagi haqiqatni biladi. Ko'p hollarda "men"imizning ijobjiy va salbiy tomonlarini bilgan yaqinlarimiz turli vaziyatlarda bizzlarni kuzatadilar. Yaqinlarimizni qanchalik ko'proq kamchilik va nuqsonlarimizga ishontriradigan bo'lsak, ularda shunchalik darajada insoniy hamdardlikni uyg'otamiz, o'zaro munosabatlarimiz shunchalik samimi bo'ladi, niroyat, ular shu darajada yordam qo'lini cho'zishga tayyor turadilar. To'g'ri, albatta, yaqinlarga o'z kamchiliklarni namoyish qilishning ham ma'lum me'yori bo'lishi darkor.

N. MIRASHIROVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Harbiy psixologiya va pedagogika
kafedrasi dotsenti.
M. ABIDJANOVA,
katta o'qituvchi



Poytaxtimizdagi "Yunusobod" sport majmuasida
14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni hamda o'z
vazifasini bajarish chog'ida qahramonlik va jasorat
ko'rsatib, halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va
xodimlar xotirasiga bag'ishlangan qo'l jangi bo'yicha
"Xotira turniri" bo'lib o'tdi.

YANGI CHAMPIONLAR

"Xotira turniri" O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligida Qo'l jangi federatsiyasi tashabbusi bilan tashkil qilindi. Unda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning 52 nafar harbiy xizmatchisi jami 8 ta - 57, 62, 67, 73, 80, 88, 97, +97 kg vazn toifasida tatamida jang olib bordi.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimida Prezident davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati va Davlat bojxonasi qo'mitasi rahbariyati, Xalqaro qo'l jangi federatsiyasi prezidenti Sergey Astaxov, hamkor davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faol va havaskor yoshlar hamda sport ustalari ishtirok etdi. Barcha vazirlik va idoralar rahbarlari turnirning final janglarini bevosita kuzatib bordi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har yili o'tkazilishi an'anaga aylangan mazkur musobaqa bu yil Mudofaa vazirligi tomonidan yuqori savyada tashkillashtirildi.

Musobaqani O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov kirish so'zi bilan ochib berdi va o'z nutqida yurtimizda qo'l jangi sport turini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ushbu sport turini yoshlar orasida ommalashtirish borasidagi islohotlar Prezidentimizning "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan yanada mustahkamlanganini alohida ta'kidladi.

So'nggi yillarda qo'l jangi bo'yicha sportchilarimizning jahon arenalarida g'oliblikni qo'lga kiritib, yuqori natijalarga erishayotgani dunyo hamjamiyati nigohiga tushib ulgurdi. Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo yoshlari orasida qo'l jangi sport turiga qiziqish ortayotganidan dalolat berishini aytди. Shu sabab ushbu sport turini Osiyo davlatlari miqyosida ham keng rivojlantirish maqsadida yurtimizda Osiyo qo'l jangi federatsiyasi tashkil etilgani, o'z o'rnda qo'l jangi sport turi bo'yicha 2025-yilda Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, o'smirlar o'rtaсидаги Osiyo hamda kelgusida Olimpiya o'yinlariga kiritishga katta qadam qo'yilganiga alohida urg'u berildi.

Xalqaro qo'l jangi federatsiyasi prezidenti Sergey Astaxov ham so'zga chiqib, O'zbekistonda qo'l jangi sport turining tez sur'atlarda rivojlanib borayotgani, sportchilarimizning jahon arenalarida ham yuqori natijalarga erishayotganini ta'kidladi.





KASHF ETILDI



Ochilish marosimining konsert dasturidan so'ng bellashuvlarga start berilib, g'oliblar birin-ketin aniqlana boshlandi. Darhaqiqat, kunning birinchi yarmida o'tkazilgan saralash bosqichi jangchilar uchun oson kechmadi. Chunki har bir harbiy xizmatchi g'oliblik uchun bor imkoniyatini ishga soldi. Final maydoniga esa saralash bellashuvlarida muvaffaqiyatlari ishtirok etib, yuqori natijalarini qayd etgan eng kuchlilargina ko'tarildi. Hal qiluvchi janglar intrigaga boy o'tdi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bahsler yakuni bo'yicha umumjamoa hisobida Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinci o'rinni Mudofaa vazirligi harbiy sportchilariga nasib qilgan bo'lsa, uchinchi o'ringa Ichki ishlar vazirligi vakillari munosib ko'rildi. Shuningdek, bir nechta vazn toifasida va nominatsiyalar bo'yicha ham qo'l jangi ustalari aniqlandi. Aytish mumkinki, mazkur musobaqa yangi championlar nomini kashf etgani bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar turnir tashkilotchilari tomonidan kubok, diplom va esdalik sovg'alar bilan munosib taqdirlandi.

Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashtib borishiga bog'liq.

Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamlı axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'nnaviy hayot oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantining dunyoqarashini shakllantirish, yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishi taqozo qildi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda.

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, kursant dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini

amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'nnaviyatlari, ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlari ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsnini kamolga yetkazish kabi muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanishi taqozo etadi.

Zamonaviy ta'lim kursantni butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan

o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama quay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. Kursant bunday ta'lim tizimidagi asosiy bo'Imagan maqsadlarga erishish vositasiga emas, balki uning asosiy maqsadi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim kursantning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'limdir. Bu turdag'i ta'lim kursantlarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qildi. Bu turdag'i ta'limni tashkil etish professor-

o'qituvchilardan har bir kursantga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni,unga ishonch bildirishni taqozo etadi.

Kursantlar mustaqil fikrlay olsalar, har bir masalaga ijodiy yondashsalar, to'g'ri xulosa chiqara olsalar ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari kursantdag'i mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

Sh. PAZILOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Tabiiy fanlar kafedrasи dotsenti

✓ YIG'ILISH

Markaziy kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining navbatdan tashqari konferensiyasida markaziy kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi.



Konferensiyanidan so'ng yangi tarkib ishtirokida o'tkazilgan "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi yig'ilishida tashkiliy va asosiy masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, tashkilot markaziy kengashi raisining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va tashkiliy-ustav faoliyati bo'yicha birinchi o'rinnbosari lavozimiga Nurmuhammad Mulabayev, raisning ommaviy texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha o'rinnbosari lavozimiga Nizomjon Parmanov hamda raisning sport ishlari bo'yicha o'rinnbosari lavozimiga Anvar Kurbaniyazov munosib deb topilib, bir ovozdan saylandilar. Shuningdek, markaziy kengash hay'ati tarkibi tasdiqlandi.

Tadbir davomida "O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljalangan maqsadli dastur" yig'ilish ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

✓ HARBIY-VATANPARVARLIK

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan qator harbiy-vatanparvarlik tadbirlari va sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning muzeyga sayohati

Tashkilotning Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Mirzo Ulug'bek tumani o'quv sport-tehnika klubi tomonidan poytaxtimizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilarining Qurolli Kuchlar davlat muzeyiga ekskursiya tashkil etildi.

Ekskursiya davomida o'quvchilarga ekspozitsiyalar orqali mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari harbiy san'ati hamda zamonaviy O'zbekiston mudofaa qobiliyatni rivojlanishining bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida yoshlar muzey xodimlaridan o'zlarini



ENG NAMUNALI YETAKCHILAR ANIQLANDI

Nukus garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi kuch tuzilmalarining yosh harbiy xizmatchilari o'rtasida "Yosh harbiylar forumi" hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqining harbiy qism va muassasalardagi boshlang'ich tashkiloti yetakchilari o'rtasida o'tkazilgan "Eng namunali boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovinging taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tomonidan joriy yil davomida 70 dan ortiq tadbir va loyihamar tashkil etildi. Hududdagi kuch tuzilmalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqining 16 nafar boshlang'ich tashkilot yetakchisi faoliyati samarali yo'ga qo'yilgan bo'lib, tashkil etilayotgan turlituman tadbirilar, uchrashuv va davra suhbatlari orqali nafaqat armiyadagi yoshlarning, balki mahalla va ovulda o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarining ham vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasini yuksaltirishga erishiyapti.

Forum doirasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda milliy g'urur, ifixor va or-nomus fazilatlarini shakkantirish, yoshlar bilan ishlashni to'g'ri yo'lg'a qo'yish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha mutaxassislar tomonidan kerakli tavsiya va takliflar berildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan kuch

tuzilmalarining boshlang'ich tashkilotlarda yoshlarga oid amalga oshirilayotgan ishlar hamda harbiy qism va muassasalardagi faoliyati tahlil qilinib, tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan kuch tuzilmalaridagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari o'rtasida tashkil etilgan "Eng namunali boshlang'ich tashkilot yetakchisi" ko'rik-tanlovinging g'olibligi Ichki ishlar vazirligiga qarashli Qalqaro aeroplardorda xavfsizlikni ta'minlash bo'limining boshlang'ich tashkilot yetakchisi kapitan Abbas Beknazarovga nasib etdi. Ikkinchchi o'rin Mufodaa vazirligiga qarashli Nukus garnizonidagi harbiy qism boshlang'ich tashkilot yetakchisi katta leytenant Mehriddin Tinglashevga, 3-o'rin esa Milliy gvardiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qo'riqlash boshqarmasi boshlang'ich tashkilot yetakchisi katta leytenant Miyras Kudaybergenovga nasib etdi.

G'olib va sovindorlar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, tadbirda yil davomida o'ziga yuklatilgan vazifalarga vijdonan yondashib, sidqidildan xizmat qilgan harbiy xizmatchi va xodimlarning mehnati hududi kengash tomonidan e'tirof etildi.

Tadbirning ijodiy qismida Nukus garnizonidagi askarlarning saf elementlari va qo'l jangi bilan ko'rgazmali chiqishlari barchani hayratda qoldirgan bo'lsa, garnizon Ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestri va san'atkorlari tomonidan ijob etilgan qo'shiqlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i**



✓ AQL BAHSI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida harbiy xizmatchilar, kursantlar, faxriylar va o'quvchi-yoshlar ishtirokida shaxmat musobaqasi bo'lib o'tdi.

UCH AVLOD SHAXMAT MAYDONIDA



– Shaxmat eng qadimiy sport turi bo'lib, insonning fikrlash qobiliyati, aqliy salohiyatini yuksaltirish, maqsadli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakkantirishda muhim rol o'ynaydi, – deydi kursant S. Saidov. – O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida shaxmatning kelib chiqish tarixi va inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini to'la ochib

bergan. Bugungi musobaqa ishtirokchilari buyuk bobomiz nomi bilan bog'langan ushbu bellashuvda bor mahoratlarini namoyish etdilar.

Yoshlarda ona yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularning sharafli kasbga intilishlarini qo'llab-quvvatlash, armiya saflaridagi yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tizimli ravishda

yangicha tashkil etish maqsadida o'tkazilgan musobaqa o'quvchi-yoshlar uchun unutilmas lahzalarga boy bo'ldi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan o'yinda g'oliblar akademiya boshlig'i tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Podpolkovnik Doniyor JAMOLOV

Mudofaa vazirligiga qarashli Andijon viloyati Xonobod shahridagi harbiy qism madaniyat markazida "Zahiriddin Muhammad Bobur izidan" ko'rik-tanloving qo'shilma bosqichi bo'lib o'tdi.



ZAHIRIDDIN IZIDAN

Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning qudratli davlatni tashkil etishdagi strategik yondashuvi, amalgal oshirgan islohotlari, qo'shinni boshqarish mahoratini o'rganish, chuqur tahlil qilish maqsadida o'tkazilgan bellashuvda Farg'on, Namangan va Andijon viloyatlarda joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlardan saralanib kelgan jamoalar o'zaro bellashdi.

Tanlovida jamoalar "Zahiriddin Muhammad Bobur – o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasasi", "Zahiriddin Muhammad Bobur – mohir va iste'dodli sarkarda", "Zahiriddin Muhammad Bobur – boburiylar imperiyasi asoschisi" shartlari bo'yicha hakamlar hay'ati tomonidan adolatl hamda xolisona baholab borildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Bobur izdoshlari" (Farg'ona viloyati) jamoasi 1-o'rinni egalladi va keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdi. "Mubayyin" (Andijon viloyati) va "Humoyun" (Namangan viloyati) jamoalariga 2- va 3-o'rinnlar nasib etdi. G'olib va sovrindorlarga diplom hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

✓ SPORT

"KOMANDIR KUBOGI" TURNIRI

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yosh avlod o'rtaida sog'iom turmush tarzini targ'ib qilish, sportni yanada ommalashtirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mudofaa vazirligiga qarashli Farg'ona viloyatida joylashgan harbiy qismda tashkil etilgan "Muay-tay" to'garagi a'zolari, harbiy xizmatchilarning farzandlari va mahalliy yoshlar o'rtaida "Harbiy qism komandiri kubogi" turniri bo'lib o'tdi. Ta'kidlash joizki, uzoq yillardan buyon harbiy qismda faoliyat yuritib kelayotgan ushbu sport to'garagi a'zolari Osiyo va Yevropada o'tkazilgan jahon championatlarida munosib ishtirot etib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda.

Viloyatning ko'plab hududlarida faoliyat yuritayotgan sport klublari a'zolari qatnashgan musobaqada turli vazn toifasida sportchilar g'oliblik uchun kurash olib bordi. Yakunda g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilarga harbiy qism komandiri tomonidan kubok, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.



✓ ERTAMIZ EGALARI

VATANPARVARLIK TARG'IBOTI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan yurtimiz bo'ylab Vatanparvarlik oyligi yuqori saviyada o'tkazib kelinmoqda.



Jumladan, Mudofaa vazirligiga qarashli Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani, Toshkent viloyati Olmaliq shahri hamda Navoiy viloyatinining Uchquduq va Zarafshon shaharlarda joylashgan harbiy qismlarga biriktirilgan maktablarning o'quvchilari bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida davra suhabati, sport musobaqlari va vatanparvarlik darsi o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan ko'rgazmali qo'l jangi va faxriy qorovul chiqishlari tadbirlarga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi. Harbiy xizmatchilar, harbiy sportchilar faol ishtirot etgan va qizg'in tarzda o'tgan tadbirlar yoshlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Bunday uchrashuvlar, musobaqlar va madaniy tadbirlar ertamiz egalalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kapitan Ahrorjon SAFARALIYEV

TINGLOVCHILAR G'ALABA BOG'IDA

Qurolli Kuchlar akademiyasi negizidagi mutaxassislarini tayyorlash kursi tinglovchilari ishtirokida Toshkent shahrida joylashgan diqqatga sazovor joylar va "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga ekskursiya tashkil etildi.



Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabada O'zbekiston aholisining o'rni beqiyos. Barcha iqtisodiy obyektlar, zavod va fabrikalar urushning frontorti ta'minotida katta ahamiyat kasb etgan. Ekskursiya davomida harbiy xizmatchilar shu kabi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishdilar. Bog' ekspozitsiyalari, o'sha davrning frontorti ta'minotidagi hayot, shuningdek bog'da joylashgan "Shon-sharaf" davlat muzeyidagi nodir qo'lyozmalarining guvohi bo'ldi.

Shuningdek, poytaxtimizda joylashgan tarixiy va diqqatga sazovor joylarga ekskursiya uyushtirildi. Unda yurt posbonlari milliy urf-odatlarimiz, etnologik madaniyatimizni o'zida mujassam etgan, qo'l mehnati yordamida tayyorlangan nodir hunarmandchilik va kashtachilik mahsulotlarining ko'rgazmasida ham ishtirok etdi. Bu kabi tadbirlar milliy qadriyatlarimiz hamda boy tariximizni mukammal o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

✓ SAXOVAT

BOLAJONLAR QALBIDA BAYRAM SHUKUHI

Vatanparvarlik oyligi doirasida mamlakatimiz bo'ylab ko'plab uchrashuvlar, festivallar va mehr-muruvvat aksiyalari o'tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Angren shahridagi 34-son tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat uyida o'tkazildi.



Toshkent viloyati Olmaliq shahrida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism tashabbusi bilan internat tarbiyalanuvchilarining murg'ak qalbini xushnud etish hamda bayram shukuhini ularish maqsadida o'tkazilgan tadbir harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan musiqa sadolari ostida boshlandi.

Bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhajoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'satishni eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlab keladi. Harbiy xizmatchilarning ertak va multfilm qahramonlarini gavdalantirgan sahna ko'rinishlari barchaga birdekor manzur bo'ldi. Bolajonlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va raqslar tadbiriga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Tadbir so'ngida internat uyidagi tarbiyalanuvchilarga qo'mondonlikning bayram sovg'alarini ulashildi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Mudofaa vazirligi oliy harbiy bilim yurtlari hamda harbiy qism va muassasalar o'ttasida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanloving yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.



"Quvnoqlar va zukkolar" da g'oliblar aniqlandi



Unda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi 5 ta oliy harbiy ta'lim muassasasi jamoalari o'zaro bellashgan bo'lsa, harbiy okrug va qo'mondonliklardan 7 ta jamoa birinchilik uchun kuch sinashdi. Uch shartdan iborat bo'lgan tanlov bir-birdidan qiziqarli sahna ko'rinishlariga boy bo'ldi. Birinchi shartda jamoalar o'zlarini tanishtrishlari va ikkinchi shartda qisqa savollarga humor orqali javob berishi belgilangan edi. So'nggi shart esa uyga vazifa sifatida berilgan bo'lib, unda ishtirokchilar o'zlar faoliyat yuritayotgan muassasada mavjud muammoli vaziyatlarni kulgi ostiga olib, mashhur qo'shiqlarga parodiya shaklida namoyish etishlari kerak bo'ldi.

Aslida tanlovdan ko'zlangan asosiy maqsad harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy va intellektual jihatdan rivojlantirish, bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish va madaniy hordiq chiqarishini ta'minlashdan iborat bo'lsa-da, tanlov o'z nomi bilan tanlov. Unda kimdir g'olib, kimdir esa mag'lub bo'lishi tabiiy.

Ikki kun davom etgan ushbu musobaqaning yakuniga ko'ra, oliy harbiy ta'lim muassasalar o'ttasida 3-o'rinni Qurolli Kuchlar akademiyasining "O'zbekim" jamoasi qo'lga kiritdi. Faxli 2-o'rinni O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining "Aviators" jamoasi zabit etdi. Hakamlar hay'atining qaroriga ko'ra, mutlaq g'oliblik Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining "Quvnoq tankchilar" jamoasiga nasib etdi.

– Tanlovdan ishtirok etgan har bir jamoaning mehnatini yuksak qadrlayman. Aslida kulgi orqali namoyish etilayotgan ko'pgina hazillarning tag zamirida anchagini haqiqatlar ham birligini ko'rishimiz mumkin. Kursantlar va harbiy xizmatchilarning kulgiga solib aytayotgan bunday muammo va masalalarning yechimiga barchamiz birdek e'tibor qaratishimiz kerak, – deydi mayor Boburmirzo Soliyev. – Askiya va latifa juda nozik janr hisoblanadi. Me'yordan oshib ketishi bachkanalikka olib kelsa, kamayib ketishi tomoshabinni kuldira olmaydi. Bugun biz ko'rgan aksariyat yumorga boy sahma ko'rinishlari me'yorida bo'lgan deyga olaman. "Aviators" jamoasining chiqishlari raqib jamoa muxlislari tomonidan ham juda iliq kutib

olindi. 0,1 ball farq birinchi o'rin uchun bor kuch-g'ayratini ishga solgan kursantlarimizning 2-o'rinda qolishiga sabab bo'ldi. Oldingi yillarga nisbatan bu yilgi natijamiz ancha yaxshi bo'ldi. Ammo keyingi safar 1-o'rinni olib, kubokni Qarshi shahriga olib ketish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalar o'ttasida bo'lib o'tgan yakuniy bahs ham juda shiddati va qiziqarli o'tdi. Umumiy 7 ta jamoaning natijalariga ko'ra, 3-o'rinni Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okruning "Janub yulduzlar" jamoasi egalladi. 2-o'rinni Shimoli-g'arbiy harbiy okruning "Brigada" jamoasi zabit etdi. Finalning eng so'ngida esa 2 ta 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar sahnaga chiqishiga to'g'ri keldi. Markaziy harbiy okruning "Artilleriya" va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligining "Fidoyilar" jamoalari mutlaq g'olib deya e'tirof etildi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot akademiyasi kursanti Musulmonbek To'ramurodov hamda Toshkent harbiy okruning kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchisi, oddiy askar Abror Hoshimov "Eng yaxshi aktyor" nominatsiyasiga loyiq topildi.

G'olib va sovrindorlar kubok, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"




Insoniyat tamaddunida uning ehtiyojiga hamohang tarzda kiyim-boshlar ham taraqqiy etib bordi. Uning tadrijiy rivojlanishi harbiy kiyimlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Harbiy kiyimlar tarixi chuqur o'rganilmagan soha bo'lib, u o'zida ko'plab sirlarni pinhon saqlagan.



QISQA MA'LUMOTLAR

Sharq xalqlari tarixida harbiy kiyimlarning alohida o'rni bo'lib, uning o'rganilishi turli matolar – jun, paxta, ipak, zig'ir tolalarini, shuningdek temir, oltin, mis, qo'rg'oshin kabi metallarni ishlab chiqarish va unga ishlov berish kabi jarayonlarga ham aniqlik kiritadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Samarqandda zardo'zi, atlas, qirmizi duxoba, Hirotda kimxbob, Buxoro yaqinidagi Zandana qishlog'ida zandanachi va Olachaboftan qishlog'ida olacha ishlab chiqarish korxonalar mavjud bo'lgan. Toshkent, Qarshi, Farg'on'a, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda to'qimachilik



HARBIY KIYIMLAR TARIXI O'RGANILGANMI?

mahalla va guzarları
mavjud bo'lib, ularga
yondosh mato
va kalavalarga
bo'yoq beruvchi
nilchi rangrezlar,
chitlarga gul bosuvchi
muhrkash va chitgarlar
istiqomat qilgan.

Oddiy matolar bilan
bir qatorda qo'shinlar uchun
zarur bo'lgan kigiz ishlab
chiqaruvchi, zirh va simto'llar
to'quvchi korxonalar ham
faoliyat yuritib, ular tomonidan
tayyorlangan mahsulotlar
mamlakat qo'shinlari
ehtiyojini qondirgan.
Yirik davlatlarga asos
solgan ajodolarnimizning
ming-minglab askarlarini
harbiy ust-boshlar, zirhlari
harbiy kiyimlar bilan to'kis
ta'minlanishi mamlakatda katta
bir sanoat – ishlab chiqarish
mavjudligini bildiradi. Charm
mahsulotlaridan tayyorlangan
harbiy kiyimlar, ayniqsa o'ziga xos
tarixga ega. Uzoq tarixda Atilla
qo'shining kiyimi boshdan
o'yoq charmdan tayyorlangani
haqida evropalik tarixchilar
batafsil yozishgan.

Kamon o'qlari,
qilich tig'larini
qaytaradigan,
qor-yomg'ir
va ayozdan
saqlaydigan
pishiq
va sifatlari
charmlardan
turli
andazadagi
harbiy kiyimlar
Amir Temur va
Temuriylar davrida ham
ko'plab tayyorlangan.

BAGTAR, JAVSHAN, KEJIM...

Biz turli manbalardan foydalab,
ularning ayrimlarini quydagicha
jamladik:

bagtar – temir nimcha. Temirdan
yasalgan va har ikki tomoni baxmal
bilan qoplangan tanani himoya
qiluvchi libos.

"Boshdan oyoq Sovut-u bagtarga
g'arq bo'lib, mardi maydonlik bilagini,
shijoat va farzonalik boshini baland
ko'tardilar" ("Abdullanoma");

govsar – boshga kiyiladigan
sigirboshsimon himoya kiyim.

"Qalqondan, Sovutdan, Govsardan
o'tkazib, dushmani yiqita-yiqita
otdilar" ("Boburnoma");

dagala – askarlarning ust kiyimi;
dubulg'a – metalldan tayyorlangan
ushbu bosh kiyimning ichiga kigiz
qoplangan. Qo'shinhoshilarning
dubulg'asi askarlarnikidan farq qilib,
uchi uzun, jezdan yasalgan.

"Nusratshior sipoh ... temir va po'lat
dubulg'a bilan mukammal quollansin"
("Abdullanoma");

dovudiy Sovut – rivoyatlarga
ko'ra, Dovud payg'ambar
temirchilarning piri hisoblangani uchun
ham shu ibora taomilga kirgan;

javshan – Sovut, metalldan
yasalgan nimcha.

"Nusratshior sipoh, ko'p qurol-
aslaha, javshan, temir va po'lat
dubulg'a bilan mukammal quollansin"
("Abdullanoma");

jibo (yoki jyiba) – mudofaa
kiyimlari; zirh, Sovut va hokazo;

zirh – simdan to'qilgan, o'q va tig'
o'tmaydigan urush kiyimi, Sovut;

zihdon – kamon va uning o'qi solib
yuriladigan maxsus xalta, sadoq.

"O'qni zihdoniga qo'ygach,
uning hiloli zahrni kafiga berdi"
("Abdullanoma");

kejim (yolpo'sh, bargustvon)

– o'q o'tmasligi uchun otlar ustiga
yopiladigan temir simlardan to'qilgan
maxsus yopinchiq.

"...farangning munaqqishlaridan
yasalgan bargustvon otga
yopiladigan yolpo'shlar yopgan,
suv oqqandek yuradigan otlarga
minishib, jang maydonida jilva qildilar"
("Abdullanoma");

"Otni jiybasi va kejimi bilan daryoda
suzdirib, qattiq qiyinchilik bilan
tashqariga chiqib oldi va kejimni kesib
tashlab, shimol tomonga ot choptirdi"
("Musaxxit al-bilod");

samuriy jubba – qunduz terisidan
tikilgan po'stin;

tarqu – qimmatbaho ipak mato;

yaktoyi – bir yoqali ko'ylak;

qabo – jubba (sovut) ostidan

kiyiladigan uzun ust kiyim;

hafton – Sovutning ichidan

kiyiladigan, jun yoki paxtadan to'qilgan
maxsus kamzul. Bu libos ko'p hollarda
oftobning issig'i metallni qizdirib
yubormasligi, jangchining terlamasligi
uchun Sovut va javshan ustidan ham
kiyilgan.

"Navkarlar qizil va to'q qizil
haftonlarni kiyib, dushmanlar
bilan urishish uchun yuzlandilar"
("Abdullanoma").

IRODANI SINASH VOSITASI

Hikoya qilishlaricha, Amir Laysning
ishlari yurishgach, Xurosonni bosib
olishni xohladi.

Qurollarini taqqan holda tom
ustiga chiqdi, havo g'oyatda issiq edi,
sakkiz soat o'tguncha tomda turdi.
Arkon davlat shunday issiq havoda
og'ir qurollari bilan turishdagi sabri
va quvvatiga hayron qoldilar. Sakkiz
soat o'tib, yaxshi vaqt bo'lgach,
tomdan tushib, yo'iga chiqdi va
maqsad sari yuzlandi. Atrofdagilar:
"Shunday issiq havoda og'ir qurollar
bilan turishingizga sabab nima edi?"
– deb so'radilar. U shunday javob
berdi: "Oldida ulug'ish turibdi, unga
noziklik va tan oromi bilan qadam
qo'yishim xalal yetkazadi, men o'z
nafsimni imtihon qildim, u issiq
havoda og'ir qurol bilan tura oladimi –
yo'qmi? Ko'rdimki, toqati yetar ekan!
Demak, bilingizlarkim, maqsadimiz
hosil bo'ldi!" Husayn Voiz Koshifiy,
"Futuvvatnomayi sultoniy"dan. Bu
hikoyadan ko'rindaniki, harbiy kiyim
faqat himoya vositasi emas, u
irodani sinash vositasi vazifasini ham
bajargan.

SAVOLLAR

O'rganishlarimiz doirasida Amir
Temur davrida ham harbiy kiyimlar
ishlab chiqarish juda keng miyosda
olib borilgani ayon bo'lib, bizda
ko'pgina savollar paydo bo'ldi.

Aytaylik, ikki yuz ming qo'shinni
kiyim-bosh bilan ta'minlash uchun
qancha paxta, jun va ipak, shuningdek
qancha qurol-yarog' lozim bo'lgan?

Shuncha paxta qaysi dalalarda
yetishтирсанган?

Shuncha jun qaysi chorva
hisobidan tayyorlangan?

Shuncha ipak uchun pilla qurtari
qayerda boqilgan?

Xizmatchilarga qancha maosh
to'langan?

Iqlar qayerda yigirilgan va matolar
qayerda to'qilgan?

Qayerda bo'yalgan?

Ularga turli ranglarni, boz ustiga,
rangi chiqmaydigan matolarni kimlar
tayyorlab bergen?

Buning uchun qancha korxona
ishlagan va qancha ishchi kuchi bu
ishlarga jalb etilgan?

Bunday savollar juda ko'p, haddan
ziyod. Albatta, bu savollarga zukko
tarixchilarimizdan javob kutib qolish
bilan birga, biz ham imkoniyatimiz
darajasida kelgusi izlanish va
tadqiqotlarimizni ushbu masalalarga
qaratishga harakat qilamiz.

Podpolkovnik
Mirzatilla MIRAHMEDOV,
podpolkovnik Nozim KAMALOV,
Qurlli Kuchlar akademiyasi
o'qituvchilari

0'G'IL TUG'ILSA, YER-U OSMON QUVONAR...



O'G'IL

O'g'il farzand dunyoga keldi. Karnay-surnay chaldirib, bu xushxabarni elga ovoza qildik. Uning sharafiga jonliq qurban qilib, el-u yurtga osh tortidik. Ko'cha-ko'yda so'ragan-so'ramaganga, "Ha, askar bu", deb maqtanishdan faxr tuydik.

Biz ularni orziqb kutamiz. Ha, orziqb kutamiz Vatan posbonlarini.

CHAQIRUV

Chaqiruv bo'limi binosi atrofidagi o'rindiqlarga odam sig'maydi: havo anchagina sovuq bo'lismiga qaramay, yengil kiyingan xotin-xalaj, uzun-kalta erkaklarning g'ala-g'ovuri.

Toza havodan nafas olish maqsadida hovliga chiqaman. Ayollardan biri yugurib yonimga keladi.

– Qizim, bolalarimiz qachon chiqar ekan?

– Xolajon, bolaligi qolibdimi, kap-katta yigit bo'lsalar. Uyga qaytaveringlar, tekshiruv kechgacha davom etadi.

– Ha, yo'q. Mayli, kutib turaman.

– Kutib turamiz. Hamma shu savolning javobi ilinjida bo'lganmi, baravariga tasdiqladi.

Bolang Vatan himoyasiga otlandi, kutish nima bo'libdi!

KUZATISH

Qani, endi ko'p ushlab turmanglar, yo'lovchiga yo'l yaxshi. Ertaroq borgani ma'qulda. Oqsoqlon, duo qiling.

– Illoho omin...

– Omiiin!

– Safaring bexatar bo'lsin! Oy borib, omon qayt! Halol xizmat qil, yuzimizni yerga qaratma!

Duoga ochilgan qo'llar yuzga tortildi. Mening farzandimga ham Vatanni himoya qilishdek sharaf nasib qilsin, deya havasdan namlanmagan kipriklar qolmadni.

– Zamonni qara, bizning zamonda otini eshitmagan joylarimizga xizmatga yuborishar edi. Hozir hamma o'z yurtida xizmat qilyapti. Zamonangandan aylanay, mana buni haqiqiy xizmat desa bo'ladi. Inson kindik qoni to'kilgan, erta bir kun mozoriga aylanadigan tuproqni asrashi kerak. O'zganining tuprog'i emas.

Ammo-lekin Nosirvoy rosa orzu qilgan ekan. Bolam xizmatga otlansa, yurtga to'y qilib, osh beraman, deb. Borini sochdi.

Qariyalar oqsoqolning so'zlarini tasdiqlab, birin-ketin bosh irg'ab qo'ydi.

“Uch qizdan keyin tilab olgani er bo'ldi-yu, sochsa sochibdi-da”.

XUSHXABAR

– Eshitdingizmi?

– Niman?

– Qandolat opaning o'g'liga "Jasorat" medali berishibdi.

– A, shundaymi? Eshigida tumonat odamni ko'rib, qizlaridan biortasi farzandli bo'lgandir, deb o'ylabman.

Qishloq joyda yangilik tez tarqaladi. Ha, yaxshi gapning qanoti bor. Bir zumda xonadonga butun qishloq ahli to'plandi. Biri olib, biri qo'yib, xuddi voqealiga ustida o'zları bo'lgandek qahramonning jasorati haqida gapiradi. Nima emish: "Chegarada turgan ekan. Yana bir o'zi deng xumpar, bir

to'da g'alamislar chegarani buzib o'tmoqchi bo'libdi. Shunda deng, bizning qahramon ularni bir zarbada tizzalatib, oyoq-qo'lini bog'lab, boshliqlariga topshiribdi".

– Ol-a! Bir o'zi bo'lmagan. O'ziga o'xshagan bir-ikkiasi bilan birga ekan.

– Ee, bir o'zimi, bir nechtasimi, "zato", qahramon bo'libdi. Oliy Bosh Qo'mondonning o'zi: "Otasiga rahmat!" debdi. Barakkall! – oqsoqlon xonadon boshining yelkasiga mehr-la qo'l tashlab, bag'riga tortdi. – Yuzimizni yerga qaratmabdi. Iye, Nosirvoy, shunday quvonchli kunda ham yig'laydimi?! Yig'lamang-ey, erkakka yarashmaydi.

– Boya sindoshlariga eriyotuvdi, oshib ketganmi deyman?

“O'g'il qahramon bo'ladi-yu, yechilsa, yechilibdi-da”.

NIYAT

O'g'lim, sen tug'ilganda endi bu xonadoning chirogi o'chmaydi, dedik. Er bu pirdir, deyilgan, pirlari bor xonadonga shayton yaqin yo'lamaydi, dedik. Alp o'g'loni bor yurtning yuki yerda qolmaydi, egasi bor qo'rg'onlarga zog'lar qadam bosmaydi, dedik. Ha, shunday dedik. Shunday niyatlar qildik. Niyatimiz xolis edi...

Kichik serjant Dilnoza SULAYMONOVA

AYYOM SHUKUHI

INSON QALBICA YO'L

Yangi yil arafasida yurtimizning barcha joylarida bayram shodiyonalari ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda.

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti rahbariyati, tyutor va talabalari Yangi yil munosabati bilan Surxondayro viyolati ftiziatriya va pulmonologiya markazida davolanayotgan bolalar uchun Qorbobo va Qorqiz, ertak qahramonlari ishtirokida bayram sovg'alarini targatdi. Kutilmagan tashrif 100 nafardan ortiq bolajon uchun bir olam quvondi hadya etdi.

Bolajonlar bayramga atalgan she'rlarini to'lqinlanib aytib berdi.

Ularning orzulari, kelajakdagi maqsadlari, ezgu niyatlariga qulok tutib, qalblar larzaga keldi. Hayot nashidasini, umr qadrini, sog'liq ne'mati va unga shukronalik tuyg'ularini mana shu jajji bolakaylar ham his qilib ulgurgan. Qoroboden bayramga dardlariga darmon tilagan murg'ak qalblar hech kim xasta bo'lmasligini so'radi. Ularning orasida kelajakda uchuvchi, harbiy, shifokor, san'atkor bo'lishni orzu qilganlar talaygina.

Har bir bola bilan samimiy suhbat qilib, ularga bayram sovg'alarini ulashildi. Qoroboning sovg'alarini cheksiz mammuniyat ila qabul qilib olgan bolakaylar qalblaridagi orzularini jajji barmoqchalari bilan birma-bir sanab berdi.

Ushbu xayrii tashabbus bermor bolalar va ularning oilalarini ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish, bayram kayfiyatni ulashish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qildi.



E'TIBOR

JANUB VOQEALARI ISHTIROKCHISIGA EHTIROM

Inson qadri ulug'langan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida xalq roziliqi va shukronalik tuyg'ularini yanada rivojlantirish yotibdi. Mard, jasur yigitlar hamisha har bir xalqning maqtovi, faxr-iftixori bo'lib kelgan.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Iste'fodagi serjant Shodmon Oripov 1976-yilning 22-sentabrida Buxoro tumanida dunyoga kelgan.

U dastlab o'ta maktabni a'lo baholarga tamomlab, yigitlik va fuqarolik burchini bajarish uchun 1993-yilda armiya

saflariga chaqirilgan. Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, Vatanga bo'lgan kuchli muhabbati sababli kontrakt bo'yicha harbiy xizmatini davom ettirdi.

Shodmon Oripov kontrakt bo'yicha xizmatni o'tab yurgan kezlarida 1999-yilda Angren shahrida tinchligimizga raxna solmoqchi bo'lgan qurollangan jangarilarga qarshi o'tkazilgan operatsiyalarda qatnashgan, 2000-yilda Surxondayro viyolatining Sariosiyo va Uzon tumanlarida terrorchilarga qarshi o'tkazilgan operatsiyalarda qatnashib, Mi-8 jangovar vertolyotidan tog'li hududlarda jangarilarga qarshi ayovsiz kurash olib borayotgan vaqtida to'satdan vertolyot hujumga uchrab, yerga qulashi oqibatida u turli ko'rinishdagi tan jarohatini olgan.

Shundan so'ng iste'fodagi serjant Shodmon Oripov II guruh nogironi bo'lib nafaqaga kuzatilgan. U 2 nafar farzandning otasi. Harbiy xizmatchilar bilan bo'lib o'tgan suhbatda o'z kechinmalarini so'zlab berdi.




Mayor Sherqo'zi XAKIMOV
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Jamshid NAZAROV,


Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti tyutori



GONKONG GRIPPI



O'zbekistonda shu yilning noyabr oyidan aholi orasida grippning N3N2 shtampi (A2-Gonkong) uchrayotgani to'g'risida xabarlar tarqaldi. Ommaviy axborot vositalarida Xitoy, Rossiya va qo'shni davlatlarda ham grippning bu turi asosan yosh bolalar orasida tarqalib, og'ir o'tayotganligi aytilmoqda. Ushbu kasallik 1968-yilda birinchi marta Gonkongda aniqlanib, butun dunyo bo'yicha pandemiya tarzida tarqalishi kuzatilgan va ikki yil ichida 1 mln.dan ko'p aholining o'limiga sababchi bo'lgani uchun "Gonkong grippi" deb ataladi.



GONKONG GRIPPI BOSHQA YUQUMLI KASALLIKLARDAN NIMASI BILAN FARQ QILADI?

Gonkong grippi – odam, hayvon va qush singari issiqxonilarda kasallik chaqiruvchi o'tkir respirator kasallik bo'lib, asosan nafas olish tizimini jarohatlaydi. Gonkong grippi aholi orasida tez tarqaladigan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda uchraydi. Bu kasallik mavsumiy bo'lib, asosan kuz va qish oylarida ko'p tarqaydi. Rossiya olimlarining ta'kidlashicha, o'tgan yili koronavirus infeksiyasiga qarshi cheklolvar olinib tashlanishi bilan aholi orasida Gonkong grippining tarqalishi kuzatilgan va hozirgi kunda oddiy mavsumiy gripp tarzida kechmoqda.

Kasallikning aholi orasida tez tarqalishida migratsiya asosiy o'rinni egallamoqda. Grippga o'xshash kasallik chaqiruvchi va bir-biridan epidemik xususiyati bilan farqlanuvchi 200 dan ortiq virus turlari mayjud bo'lganligi sababli laborator usulda tasdiqlangandan so'ng bemorga tashxis qo'yiladi. Gonkong grippining yashirin davri 1-2 kunni, ba'zida esa hatto 12 soatni tashkil etadi. Grippning yengil shakli bilan og'riyan bemorlar atrofdagilar uchun ko'proq xavf tug'diradi, chunki ular kasal holatida jamoat joylarida, transportda, o'qish va xizmat joylarida kasallik tarqalishiga sababchi bo'ladi.

NEGA AYNAN KUZ-QISH FASLI BU KASALLIK UCHUN MAVSUM HISOBLANADI?

Kasallikning sovuq mavsumda ko'p uchrashining boisi kasallik tarqatuvchi virus past haroratda uzoq vaqt davomida tirik saqlanadi. Bundan tashqari, havo harorati past bo'lganligi sababli kishilarning yopiq binolarda to'planish holatlari kuzatiladi. Bu holat virusning havo-tomchi orqali tarqalishi uchun ayni muddao bo'ladi. Qish faslida inson tanasida vitamin yetishmovchiligi tufayli immun tizimi kuchsizlanib qoladi va natijada tananing gripp viruslariga moyilligi yuqori bo'ladi.

O'ZBEKİSTONDA GONKONG GRIPPI BO'YİCHA EPİDEMİK VAZİYAT QANDAY?

O'zbekistonda aholi orasida gripp virusining aylanib yurishi ustidan monitoring o'rnatilgan bo'lib, aholisi orasida Gonkong grippidan tashqari grippning boshqa turlari (*koronavirus, cho'chqa grippi, paragripp, adenovirus, rinoavirus, respiratory-sintisial virus, bokavirus*) ham aniqlanmoqda. O'zbekistonda kasallanish darajasining nisbatan kamayishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, yosh bolalar, ayniqsa bir yoshgacha bo'lgan bolalar orasida ko'p uchramoqda. Buning asosiy sababi bemorlarning alohidalanmasligi, o'z bilganicha davolanish, bemor bolalarni tarbiya muassasalariga yuborish deb ko'rsatilmoqda.

QANDAY BELGILARDA NAMOYON BO'LADI?

Gonkong grippi kasalligining og'irlig darajasi tananing virus toksini bilan zararlanish (*intoksikatsiya*) darajasiga bog'iqliq. Uning belgilari: tana bo'ylab muskullarning qaqshab og'ishi, umumiyl holsizlik, tana haroratining 39 va undan ortiq ko'tarilishi, ko'z soqqasida og'riq, ko'z yoshlanishi, tomoq qirilishi, quruq yo'tal, uyquchanlik, bosh og'ishi, bosh aylanishi, ba'zida esa ko'ngil aynishi va ich ketishi kuzatiladi.

DORIXONA XODIMLARI TOMONIDAN TAVSIYA QILINGAN DORI VOSITALARIDAN FOYDALANISH MUMKINMI?

Burun oqishi, ko'z yoshlanishi va shunga o'xshash shikoyatlar faqatgina grippda bo'lmaydi. Allergik rinit, allergik sinusit, surunkali yallig'anish kasalliklarda ham shu holat kuzatiladi. Chunki immunitet tushish hisobiga allergik kasalliklar ham xuruj qiladi.

Buni esa faqat shifokor aniqlaydi. Shuning uchun bemor allergiya bo'lganda grippga qarshi, gripp bo'lganda esa allergiyaga qarshi dorilarni iste'mol qilib yubormasliklari kerak. Chunki bu kasalliklar butunlay bir-biridan farq qiladi va ularga qarshi qo'llaniladigan preparatlarning ta'siri ham boshqa-boshqa hisoblanadi. Shuning uchun gripp yoki boshqa bir kasal bo'lganda ham atrofdagilarning, dorixona xodimining tavsiyalariga ko'ra dori olib ichmasdan, shifokor ko'rigidan o'tib, uning tavsiyasiga binoan davolanish lozim.

O'Z VAQTIDA DAVOLANMASLIK OQIBATIDA KASALLIK QANDAY ASORATLARNI KELTIRIB CHIQARADI?

Davolash choralar o'z vaqtida boshlanganda, kasallik 10-14 kun davom etadi. O'z vaqtida davolanmaslik natijasida Gonkong grippi og'ir asoratlar qoldirishi bilan xavflidir. Davolash choralarini kechiktirish yoki samarasiz davolash oqibatida xastalik zotiljam, miokardit, ensefalit, meningit kabি asoratlarni keltirib chiqarishi, yurak-qon tomir, astma va qandli diabet kasalliklarining avj olishiga olib kelishi mumkin.

BEMORNİ UY SHAROITIDA PARVARİSHLASH JARAYONIDA NİMALARGA AHAMIYAT BERİSH LOZİM?

Gonkong grippining yuqish yo'li havotomchi va muloqot orgali bo'lganligi sababli kasallikning oldini olishga qaratilgan tadbirlar gripp va boshqa o'tkir respirator kasalliklardagi tadbirlar bilan juda o'xshash. Chora-tadbirlarning asosiy maqsadi – viruslar sonini havoda iloji boricha kamaytirish. Virusni havoda kamaytirishda birinchi chora bu – xonani tez-tez shamollatib, havosini almashtirish va namli tozalov ishlarni amalga oshirish. Bemorni iloji boricha alohidalash zarur, yotgan xonaga imkon boricha boshqalar, ayniqsa yosh bolalar, qariyalar va homilador ayollarni kiritmaslik kerak. Bemor parvarishi bilan shug'ullanigan kishi tibbiy niqob taqishi kerak. Xona harorati issiq bo'lishi lozim. Bemor shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi lozim. Bemor ishlatgan sochiq, dastro'moldan boshqalar foydalanmasligi zarur, ularni qaynatib yuvish, keyin dazmollah lozim. Idish-tovoqlar ham bemor tomonidan foydalaniqach, darhol qaynatilishi kerak. Ana shunda kasallik atrofdagilarga yuqishining oldi olinadi.

IMMUNITETNI OSHIRISH UCHUN NİMALARGA E'TIBOR BERİSH LOZİM?

Birinchi navbatda kun tartibiga roya etish lozim. O'z vaqtida uxlash, badanbarbiya bilan shug'ullanish, mavsumga xos kiyinish, ochiq havoda yurish, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy va aqliy mehnatni mujassamlikda olib borish talab etiladi. Ovqatlanganda vitaminlarga boy bo'lgan (*asosan askorbin kislotsasi*) mahsulotlarni iste'mol qilish, piyoz va sarimsoq piyozni kerakli miqdorda ovqat bilan iste'mol qilish ham foydalidir. Gonkong grippi va boshqa gripp kasalliklarining oldini olishda kasallikka qarshi emlashning ahamiyati katta. Uni qo'llash qisqa muddatga faol immunitet hosil bo'lishiga olib keladi. Grippga qarshi vaksina ushbu mavsumda eng ko'p uchrashi kutilayotgan va eng xavfli hisoblanayotgan grippning bir necha shtammiga, shu bilan birgalikda Gonkong grippiga qarshi qaratilgan bo'lib, emlash ushbu shtammilar bilan organizm to'qnash kelganida kasallikdan himoyalashga qaratiladi.

Tibbiy xizmat leytenantisi
X. ABDULLAYEVA,
Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot
akademiyasi internatura tinglovchisi,
B. AXMEDOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi vrach-mutaxassisasi

SUN'YIY INTELEKKT dan INGLIZ TILNI O'RGANISH SAMARALIMI?

Intellektual texnologiyalar ta'lrim sohasini ham zabt etmoqda. Bugungi kunga kelib sun'iy intellekt orqali talabalarga ingliz tilini yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradigan innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ma'lumki, ingliz tilini o'rghanishda sun'iy intellektdan foydalanishning eng samarali usullaridan biri bu onlayn o'quv platformalari va ilovalardan foydalanish sanaladi. Bunday ilovalar katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lib, interaktiv darslar va testlar orqali til o'rghanuvchilarda muloqot qilish imkoniyatini o'stradi.

Sun'iy intellektdan har kim individual tarzda foydalanishi mumkin. Shuning uchun uni har bir insonning bilim darajasiga moslashtirish mumkin bo'ladi. Eng muhim, sun'iy intellekt nutqni tahlil qilish orqali ingliz tilini o'rghanishga yordam beradi. Undagi nutqni aniqlashning zamonaviy tizimlari o'quvchilarning talaffuzi va grammaticasini baholashi, ularga fikr-mulohazalar va xatolarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu esa talabalarga ingliz tilini tezroq va samaraliroq o'rghanish imkonini beradi.

Umuman olganda, ingliz tilini o'rghanishda sun'iy intellektdan foydalanish nafaqat o'quv jarayonini osonlashtiradi, balki har bir til o'rghanuvchining individual ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantridi. Buning natijasida ular ingliz tilini o'zlashtirish bo'yicha o'zları xohlagan darajaga tezda chiqsa oladi.

Oly harbiy ta'lrim muassasalarida kursant va ofitserlarni tayyorlashda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish ham muhim sanaladi. Zero ingliz tilini bilish boshqa mamlakat vakillari bilan muloqot qilish, turli davlatlardagi hamkasblar bilan tajriba almashish kabi imkoniyatlarni beradi. Shu sababdan ham kursantlarning til o'rghanishi muhim ahamiyatga ega va bu borada sun'iy intellektdan foydalanish yanada samarali va quayadir.

Ingliz tilini o'qitish sohasidagi sun'iy intellekt kursantlarning individual xususiyatlarni hisobga olgan holda yanada shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif qilishi mumkin.

Umuman olganda, sun'iy intellektni qo'llash orqali kursant va ofitserlarning ingliz tilini tezda o'zlashtirishiga xizmat qiladigan maxsus dasturlarni yaratish mumkin. Masalan, bu jarayonda nutq amaliyoti, terminologiya va frazeologiyani o'rghanish, shuningdek lug'atni boyitish zarur bo'ladi. Bunday dasturlarda harbiy xizmatchilar duch

keladigan aniq vazifalar va ehtiyojlarni ham hisobga olish kerak.

Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt tinglovchilarga ingliz tilida muloqot qilishni o'rgatadigan chatbotlar kabi aloqa vositalarini yaratishga yordam beradi. Bu ularga mashg'ulotlar davomida amaliy vazifalarni bajarishga ko'maklashadi. Muhimi, shu sabab til o'rghanuvchilarda hatto sinfdan tashqarida ham muloqotni davom ettirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt yordamida ingliz tilini o'rghanish innovatsion va istiqbolli yondashuv bo'lib, u o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishga va til o'rghanuvchilarning chet tilni tezroq va yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Dilobar NURIDINOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Tillar kafedrasи katta o'qituvchisi

KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida muntazam ravishda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli tadbirdilar o'tkazilishi an'anaga aylangan.

ELNING ERTASI UCHUN

Ana shunday tadbirdardan biri Yashnobod tumanidagi 28- hamda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 207-, 210-umumta'l'm maktablari o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi.

Tadbir davomida ertamiz egalari kursantlarning kun tartibidan o'rin olgan qiziqarli jarayonlar, ko'rgazmali mashg'ulotlar, yaratilgan shart-sharoitlarning guvohi bo'ldi va

o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislari tomonidan atroflichha javoblar oldi.

Kutubxonada o'tkazilgan ijodiy suhbat va madaniyat markazida tashkil etilgan konsert dasturi barchaga xush kayfiyat ulashdi. Bundan tashqari, yoshlar uchun tashkil etilgan o'quv-moddiy bazalar, qurol-aslahha va harbiy texnikalar ko'rigi

bilan birga harbiy xizmatchilarning qo'jangi chiqishlari tomoshabinlarga bayram shukuhini hadya etdi.

Mazkur tadbirdarning muntazam o'tkazib borilishi o'sib kelayotgan avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakkantirish, ularda el-yurtning ertasi uchun xizmat qilishga ishtiyoqini oshirish bilan birga kelgusida mamlakatimizning

barcha sohalari uchun tashabbuskor, jonkuyar, halol va o'z kasbiga sadoqatli kadrlarni voyaga yetkazishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Polkovnik
Abdulhamid XOLDOROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Harbiy san'at kafedrasи o'qituvchisi

SAMARALI MEHNAT NATIJASI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar"
tashkilotining Toshkent viloyati
kengashi tasarrufidagi Yangiyo'l
shahri o'quv sport-texnika klubi
jamoasi poyoniga yetayotgan 2023-
yil mobaynida yoshlarni harbiy-
vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash
borasida samarali natijalarga erishdi.

Jumladan, yoshlari va fuqarolarni mudofaa sohasidagi boshlang'ich bilimlarga o'qitishda va ularni harbiy xizmatga tayyorlashda davlat hokimiyati organlariga ko'maklashish maqsadida shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va mакtab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda IIB JXX YHX bo'linmalari bilan hamkorlikda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Chunonchi, "Vatanparvar" tashkilotining 32 yilligi munosabati bilan Yangiyo'l shahridagi umumta'lim mакtablarining yuqori sinf o'quvchilarini ishtirokida havo miltig'idan o'q otish musobaqasi o'tkazildi. Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti –

mening tanlovim!" shiori ostida ham qator tadbirlar tashkil etildi. Bundan tashqari, Konstitutsiya qabul qilingan kunga bag'ishlab ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

– Yakunlanayotgan yil mobaynida xodimlarimiz hamkor tashkilotlar ko'magida harbiy-vatanparvarlik va yoshlar bilan ishlash yo'nalishida yuzdan ziyod ma'navy-ma'rifiy tadbirni tashkil etdi, – deydi O'STK boshlig'i Nazirjon Saidov. – Shuningdek, 6 ta shahar, 15 ta klub musobaqasi o'tkazilib, shahar yoshlarining muvaffaqiyatli ishtiroki ta'minlandi.

Ayni paytda o'quv sport-texnika klubi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan havo miltiq'idan o'q otish,

“Vatanparvar” tashkiloti Yangiyo'l shahri o'quv sport-texnika klubi jamoasi mamlakatimiz tinchligi uchun matonat bilan xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni, “Vatanparvar” tashkiloti xodimlarini hamda barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan Yangi – 2024-yil bilan chin dildan muharrab hed etadi.

*Yangi yilingiz qutlug' bo'sin, muhtaram
yurtdoshlar!*



aviamodel kabi seksiyalarda o'ttiz nafarga yaqin yosh jadval asosida muntazam shug'ullanib kelmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tashkilotning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ommaviy kasbdagi xodimlarni tayyorlash ishlari ham muvaffaqiyatli bajarildi. Klub jamoasining bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan "B", "BC", "C", "E" toifali haydovchilar tayyorlanib, bu borada belgilangan rejaning bajarilishiga erishildi. Albatta, bunday muvaffaqiyatlarda klubda faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalarining fidokorona mehnatlarini e'tirof etish o'rinnlidir.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar"
tashkilotining Xorazm viloyati kengashi
tasarrufidagi Qo'shko'pir tumanida
faoliyat ko'rsatayotgan "O'rta yop"
o'quv sport-texnika klubi jamoasi
tomonidan ham yakunlanayotgan
2023-yilda yoshlarni ijtimoiy foydali
hamda ommaviy vatanparvarlik
ishlariga jalb etish maqsadida bir qator
tadbirlar amalga osdirildi

Xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalg etishga hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega farzandlar sifatida voyaga yetkazishga yo'naltirilgan tadbirdir bu horadagi ishlar sirasidandir.

– O‘z poyoniga yetayotgan 2023-yilda ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qancha hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida ish olib borildi, – deydi O‘STK boshlig‘i Rustam Atamuratov. – Birgina muhim sanalar munosabati bilan ma’naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasida o’tkazilgan turli tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, klub jamoasi tomonidan yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda ularni klubda faoliyat ko’rsatayotgan sport

E'TIBORGА MOLIK ISHLAR



"Vatanparvar" tashkiloti Qo'shko'pir tumani "O'rta yop" o'quv sport-teknika klubi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan

*Yangi yil bilan samimiy tabriklaydi.
2024-yil barchangizga yaxshi kayfiyat, baxt va omad olib kelsin!
Bauraminingiz muhberak bo'ssin aziz yetandoshlar!*

to'garaklariga jalb etish maqsadida ham ko'plab amaliy ishlar qilindi.

Mazkur o'quv sport-texnika klubida 2023-yil mobaynida "B", "BC", "C" toifali haydovchilar tayyorlash jarayoni ham muvaffaqiyatl uddalandi. Buning uchun klubda muayyan shart-sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish borasidagi ishlar ham e'tiborga molik bo'ldi. Buning

uchun "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan yoshlar va kam ta'minlangan oilalar farzandlariga bir qancha surʼulardan foydalanildi.

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, yakunlanayotgan yilda "o'rtta yop'"lik vatanparvarchilar el-yurt ravnaqiga o'zlarining munosib hissasini qo'sha oldi. Tilagimiz, ana shunday jo'shqinlik Sizni kirib kelayotgan Yangi vilda ham tark etmasin, aziz "Vatanparvar"chilar!

Mana, hademay, umrimizning yana bir yili ortda qoladi. Qarang, vaqt shunchalik uchqur otki, uning qanday o'tganini ko'pchiligidan sezmay ham qoldik. Beixtiyor bosib o'tgan hayotimiz bir-bir ko'z o'ngimizdan o'ta boshlaydi. Axir yil oxiri – sarhisob pallasi-da. Ortga nazar tashlab, qilingan ishlar tahlil, yutuqlar e'tirof etiladi.

Xo'sh, o'tayotgan 2023-yil "Vatanparvar" gazetasi tarixida, jamoadoshlar hayotida qanday iz qoldirdi? Quyida shu haqda o'qiysiz.

BIZNI




KUZATISHDA DAVOM ETING



**Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV**



Begali ESHONQULOV



Zulfiya YUNUSOVA



**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV**

Mustaqillik bayrami – sururli ayyom. Joriy yilgi mustaqilligimizning 32 yillik bayram tantanalarini ikki hamkasbimizning hayotida o'chmas iz qoldirgani bilan yanada shukuhli bo'ldi, desak, yanglishmaymiz. Ya'ni bayram arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririysi bo'lim boshlig'i katta leytenant Islomjon Qo'chqorov "Kelajak bonyodkori" medali bilan, kotibiyatning yetakchi mutaxassisini Begali Eshonqulov esa "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Ularning ikkisi ham O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosи. Yosh bo'lsalar-da, ijodda allaqachon o'z o'rniiga ega bo'lib ulgurgan shoirlar. Katta davlat tadbirlaridagi ishtiroti ularni butun O'zbekistonga yanada taniqli qilgani rost. Iqtidorli, o'z uslubiga ega bu ikki shoir joriy yilda respublika miqyosida

o'tkazilgan "Vatan manzumasi" adabiy-ma'rifiy konsert dasturlarida faol ishtirop etdi.

Islomjon Qo'chqorov qalami o'tkir jurnalistlardan. Uning ijod namunalari qator respublika nashrlarida e'lon qilingan.

Begali Eshonqulov esa she'riyat ixlosmandlariga Bek Ali taxallusi orqali yaxshi tanish. U nazmida dostonchilik an'anasini ham davom ettirib kelayotgan ijodkor. Uning "Elomon" dostoni fikrimizning yaqqol isbotidir.

Davlat mukofoti sovrendori, bir necha to'plamlar muallifi Zulfiya Yunusovaning vatanparvarlik, yurtga sadoqat, insoniylik, mehrmuhabbatga yo'g'rilgan hikoyalarini albatta o'qigansiz.

Hamkasbimiz milliy armiyamizda kechayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish orqali harbiy-vatanparvarlikni targ'ib-tashviq

qilishda alohida jonbozlik ko'rsatib kelyapti.

Joriy yil Zulfiya Yunusova uchun ham omadli keldi. Ijodkor O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Vatan uchun yashaylik!" respublika tanlovi sovrendori bo'ldi.

Katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov joriy yilda "O'zbekistonda harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari" mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Uning bu natijasi yil yakunida mudofaa vazirining

"Namunali xizmati uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Yaqinda dotsent ilmiy unvonini olish uchun maxsus imtihondan muvaffaqiyatlil o'tdi. Dilshod ilmiy faoliyatini yana davom ettirish niyatida.

Ham ijodda, ham harbiy xizmatda, ham ilmda yuqori marralarni zabt etayotgan hamkasbimizning yangi yilda ham zafarlar yor bo'lishini tilaymiz.

TAHRIRIYAT

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI**



MUASSIS

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaa vazirligi
www.mudofaa.uz



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaa vazirligi
mudofaa vazirligi

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otobek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5666
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 30 126 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.